

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

# **Turkiy filologiyaga kirish ma`ruza matni**

**ANDIJON-2015**

## 1-mavzu: «Turkiy filologiyaga kirish» kursining predmeti va mazmuni

### R e j a:

1. «Turkiy filologiyaga kirish» kursining vazifasi, mazmuni, ahamiyati.
2. «Turkiy filologiyaga kirish» fani doirasida o'rganiladigan masalalar.
3. Turkiy tillar oilasi.
4. «Turk» etnonimi va uning etimologiyasi.
5. Turkiy tillar va xalqlar, ularning soni, yashash hududlari.

**Tayanch so'z va iboralar:** *Tillar oilasi, turkiy tillar oilasi, jonli va o'lik tillar, turkologiya, turkiy filologiya.*

Turkologiyaning asosiy muammolaridan biri turkiy tillar tarixini shu til egalari tarixi bilan bog'lab o'rganish masalasidir. Mazkur muammoni to'g'ri va muvaffaqiyatli hal qilinishi turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi hamda lug'atlarini yaratish imkonini beradi.

Davlat tili haqidagi qonunning 19-bandida: «O'tmishning ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy, adabiy-badiiy, madaniy va ilmiy merosini keng targ'ib qilish va chuqur o'rganish uchun o'zbek xalqining tarixiy-madaniy yodgorliklari asl nusxada nashr etilishi ta'minlanadi», - deyiladi.

Turkiy xalqlarning etnik tarkibi murakkab va xilma-xildir. Hatto, turkiy xalqlarning alohida qismlari (bulgor, qipchoq, qorluq va hokazo) o'rtasida ham til tafovutlari mavjud. Lekin turkiy tillar geneologik va tipologik jihatdan bir-biriga juda yaqin bo'lgan tillar oilasini tashkil qiladi.

Tilshunos olimlarning keyingi ma'lumotlariga ko'ra dunyoda kishilar 5600 xil til va dialektlar vositasida aloqa qilishar ekan. M; Sudan aholisi 117 tilda, Dog'istonda 100 dan ortiq tillarda muloqot qilishar ekan. Kongoda 500 ta, Indoneziyada 250 ta til mavjud. Hindistonda to'rt uzvdan iborat ekzogloss lisoniy holat mavjud. 1) mahalliy tillar; 2) hududiy tillar, 3) makrovositachi til; 4) diniy yoki kasbiy til. Shuning uchun ham tilshunoslikda tillar til oilalariga ajratiladi.

O'zaro o'xshashligi kelib chiqish asosining umumiyligi bilan izohlanadigan tillar guruhi **tillar oilasi** deyiladi. Til oilasi o'z ichiga bir bobo tildan kelib chiqqan hamma tillarni olgani uchun it juda yirik tillar yig'indisini tashkit etadi. Hozirgi tilshunoslik ma'lumotlariga qaraganda bugungi kunda 20 dan ortiq til oilalari mavjud. Har bir oila o'z navbatida qarindoshlikning yaqinlik darajasiga ko'ra bir necha guruhlariga ajratilishi mumkin. Masalan, turkiy tillar oilasi bir necha guruhlariga bo'linadi: o'g'uz, qipchoq, qorluq kabi.

Bu haqda Siz «Tilshunoslikka kirish» kursida asosiy bilimlarni olgansiz. Tillar oilasiga kiruvchi turkiy tillar oilasi son jihatidan hind-yevropa tillar oilasidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Hozirgi oltoy tillar oilasiga mansub xalqlarning umumiy soni 135,6 mln. bo'lib, shundan 106,5 mln. turkiy, 15 mln. mo'gul, 14,1 mln. tunfus-manjur tillarida so'zlashuvchi xalqlar tashkil qiladi. Ktfrinib turibdiki, oltoy tillari oilasida turkiy xalqlar eng ko'p sonli bo'lib, ular faqat Osiyodagina etnas, hattoki Yevropada (3,2 mln), Afrikada (35 ming), Amerikada (95 ming), Avstraliyada (35 ming) ham istiqomat qiladilar. Hozirda turkiy tillar oilasiga ko'pgina katta va kichik, jonli va o'lik tillardan 44 tasi kiradi: turk (usmonli turk), o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz, uyg'ur, ozarbayjon, bolqor, qo'miq, qorachoy, no'g'ay, boshqard, tatar, chuvash, xakas, tuva, yoqut, qrim-tatar, gagauz, qoraqalpoq, chulim, oltoy, sibirng-tatar lahjalari, qaray, turxman, tofalar (karagas) tili, kamasin, shor va boshq.

Turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar ilmiy manbalarda 40, ba'zilarida 60 ta deb ko'rsatiladi. Turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlar soni 90-100 millionni tashkil qiladi. 1992 yil 4-9 may da Anqarada turkiy xalqlar kongressi bo'lib o'tadi. Mazkur kongressni tashkiliy qo'mita raisi Ayda Qutlu so'zlagan nutqida bugungi kunda turkiy tillarda stfzlovchi xalqlarning sonini 200 millionga yetdi, deb ta'kidlagan.

Bu dalilning o'ziyoq turkiy tillarning qadimiyligidan, jug'rofiy xududningkengligidan dalolat beradi.

Yuqorida sanab otilgan tillar kelib chiqishining umumiyligi, fonetik, leksik-semantik morfologik va sintaktik xususiyatlarining o'xshashligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham yagona tillar oilasini tashkil qiladi.

Turkiy tillar oilasiga mansub tillar uchun asos bo'lgan bobo til-qadimgi turk tilidir. Bundan - anglashiladiki, turkiy tillar uzoq va qadimiy tarixga ega.

Turkiy xalqlarning tillari va adabiyotini o'rganuvchi fan turkologiya, shu sohalarga oid tadqiqot olib boruvchi olim esa turkolog deb ataladi. Turkologiya termini turk etnonimiga «bilim, tushuncha ma'nolarini anglatuvchi «logos» so'zini qo'shiluvidan yasalgan.'

Turkiy filologiya, yuqorida tilga olingan turkiy xalqlar tili va adabiyoti, taraqqiyoti tarixini, taraqqiy etish omillarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganuvchi fandır. Turkiy filologiya keng qamrovli bo'lib, o'z navbatida, o'zbek filologiyasi, qirg'iz filologiyasi, turk filologiyasi kabi qator tarmoqlarga bo'linadi.

«Turkiy filologiyaga kirish» esa ana shu fanga oid ilk nazariy va amaliy tushunchalarni o'rgatadi. Filologiya fakulngteti talabalarini turkiy tillarning taraqqiyot tarixi turkiy tillar tarixini o'rganish manbalari, turkiy tillar tasnifi, turkiy xalqlarning yozuv sistemasi, hozirgi turkiy tillarning xarakterli lingvistik xususiyatlari kabi masalalarning o'rganilishi turkiy filologiya — turkologiya fani haqidagi dastlabki nazariy bilimlar bilan qurollantirish asosida ularni keyingi kurslarda o'qitiladigan turkiy tillar, jumladan, o'zbek adabiy tili tarixiga oid fanlarga tayyorlash «Turkiy filologiyaga kirish\* fanining asosiy maqsadi va vazifasi hisoblanadi. «Turkiy filologiyaga kirish» kursi quyidagi masalalarni o'rganadi:

- turkiy tillar oilasi, uning shukllanishi va taraqqiyotini;
- turkiy filologiya fanining shukllanishi va rivojlanishida arab filologiyasining o'rnini;
- turkiy tillarni o'rganish manbalarini;
- turkiy tillarni cfrganilish tarixini;
- turkiy tillar, jumladan, o'zbek adabiy tili tadqiqiga bag'ishlangan grammatik asarlarni, lug'atlarini;
- turkiy tillar tasnifmi;
- turkiy tillarning o'rganish sohasida Moskva, Qozon, Peterburg maktablari vakillarini amalga oshirgan ishlarni, yaratilgan tadqiqotlarini;
- qadimgi turkiy yodgorliklar va ularning o'rganilishini;
- turkiy tillarning o'ziga xos leksik-grammatik xususiyatlarini;
- hozirgi turkiy tillarning strukturasi.

«Turkiy filologiyaga kirish» predmeti talabalarni tilda sodir bo'ladigan turlicha cfzgarishlarni ongli ravishda tushunib olishlariga yordam beribgina qolmay, balki hozirgi o'zbek tilini o'rganishda asosiy poydevor hamdir.

Tilning o'tmish tarixini o'rganish hozirgi tilning xususiyatini, uning ob'ektiv taraqqiyot qonunlarini chuqur va atroflicha tushunib olish uchun keng imkoniyat tug'diradi.

«Turkiy filologiyaga kirish» kursi yuqoridagi masalalarning o'rganish asosida turkiy tillarni ajralmas uzviy tarmogi bo'lgan o'zbek adabiy tilining tarixi, taraqqiyot bosqichlari, nomlanish tarixi, uni o'rganish borasidagi tarixiy va zamonaviy ilmiy ishlarga, turkiy tillar oilasida tutgan o'zni kabi masalalarga alohida e'tibor qaratadi. Shu asosda talabalarning umumfilologik saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

Turkiy tillarni o'rganish bo'yicha bir qancha darslik va qo'llanmalar yaratildi. Bu sohada V.N.Bogorodskiyning «Turk-tatar tilshunosligiga kirish», N.Ye.Krimskiyning «Turkiy xalqlar, ularning tillari va adabiyoti», N.A.Baskakovning «Turkiy tillarni o'rganishga kirish», K.Mengesning «Turkiy tillar va xalqlar. Turkiyshunoslikka kirish», F.Zeynalovning «Turkiyshunoslik asoslari», I.Qo'chqarov, B.Isabekovlarning «Turkiy filologiyaga kirish», E.Kaydarov., M.Orazovning «Turkiyshunoslikka kirish» nomli darslik qo'llanmalar yaratilganligini ta'kidlash joiz.

Genetik qarindoshlik tufayli turkiy xalqlar tillarida hobo turkiy tilda mavjud bo'lgan ko'plab turgun birikmalar, cfxshatish va sifatlashlar, maqol-matallar, fonetik, morfologik va sintaktik tuzilish xossalari keyinchalik mustaqillashgan barcha turkiy tillarga ham o'tgan, buning ustiga, yonma-yon yashab kelayotgan qardosh xalqlar tillarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzining yaqinligidan kelib chiqadigan yana boshqa lisoniy muvofiqliklar ham borki, bu turkiy adabiyotlarning mushtarakligini ta'kidlashda belgilovchi omillar sirasiga kiradi. Masalan, qirg'iz va o'zbek tillarini muqoyasa etib, birgina ko'z-ko'z so'zi asosida 50 ga yaqin lug'aviy birikma mavjudligini, bular xuddi shu shakli (ko'z qismoq - kos qo's, ko'z tegmoq - kozu ley, yog'ochning ko'zi — jo'g'achto'n kozu va boshq.) da har

ikki tilda ham mavjudligini, tffla muvofiqiligini ko'rishimiz mumkin. Holbuki, shu misolning o'zi ham turkiyxalqlarning tafakkur tarzi — dunyoni anglash va anglatish shakli ma'lum ma'noda bir xil ekanligidan dalolatdir.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Til oilasi deganda nimani tushunasiz?
2. Turkiy tillar oilasiga qaysi tillar kiradi?
3. Turkiy xalqlarning miqdori qancha va qaysi xududlarda yashaydi?
4. Turkiy filologiya qanday fan ?
5. “Turkiy filologiyaga kirish” kursining maqsad va vazifalari nimadan iborat?
6. “Turkiy filologiyaga kirish” qanday masalalarni o’rganadi?

### **2-mavzu: Turkiy tillartaraqqiyotiningdavrlari**

#### **R e j a:**

1. Turkiy tillar taraqqiyotini davrlashtirish masalasi.
2. Turkiy tillar taraqqiyotini oltoy va xunn davrlari.
3. Turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi turk (V-X) va o’rta turk davrlari (X-XY).
4. Turkiy tillar taraqqiyotining yangi turk davri (XV-XX), bu davrda yaratilgan yozma yodgorliklar.
5. Turkiy tillar taraqqiyotining eng yangi davri.

**Tayanch so’z va iboralar:** *til tarixi, turkiy tillar oilasi, oltoy nazariyasi, Xunn davri, Turk hoqonligi davri, mofg’ul, tungus-manjur tillari.*

Tillarning taraqqiyoti va yanada takomillashuvi xalq ijtimoiy hayotining taraqqiyotiga bog'liq. Kishilik jamiyatining eng kichik va qadimiy uyushmasi urugdir. Turli sabablarga ko'ra urug'lar bo'linib, qarindosh uruglar paydo btildi. Qarindosh urug'lar uyushmasi qabila deb ataladi. Qabilalarning o'z tili, aloqa vositasi bo'lgan.

Tilning qabila tilidan xalq tiliga, xalq tilidan milliy tilga aylanishi tarixiy jarayonning mahsuli hisoblanadi. Har bir turkiy til o'zining umumturkiy xarakterini saqlagani holda cfziga xos xususiyatlarga ega boiib bordi.

Umumiy til, negiz til tushunchasi har bir konkret turkiy til uchun, shuningdek, turkiy tillarning ma'lum guruhi uchun nisbiy xarakterga ega, chunki har bir turkiy tilning taraqqiyot yo'li boshqacha bctladi. Masalan, hozirgi qoraqalpoq tili uchun XIY-XYI asrlardagi qipchoq-ntfgay tilining umumiy tili negiz til hisoblanadi. Qipchoq-no'g'ay umumiy tili uchun esa IX-XIII asrlardagi umumqipchoq tili negiz til sanaladi.

Turkiy tillar garchi bir negiz tildan o'sib chiqqan bo'lsa-da, zamon otishi bilan ularning ayrimlari bir-biridan uzoqlashib ketganlar. Bunga asosiy sabab, birinchidan, ularning turli territoriyalarda bo'lishligi, ikkincludan, boshqa tillar bilan aloqaga kirishishidir.

Masalan, oltoy tillari mo'g'ul tillari bilan, turkman tili eron tillari bilan, yogut tili mo'g'ul-manjur tillari bilan, o'zbek tili fors-tojik tillari bilan o'zaro yaqin aloqada bo'lgan. Ana shu aloqa natijasida turkiy tillar orasida sezilarli farqlar paydo bo'lgan.

Turkiy xalqlar va ularning tillari taraqqiyotini bir qator turkolog olimlar turli bosqichlarga bo'lib davrlashtirgan. Jumladan, N.A.Baskakov «Vvedenie vizuchenie tyurkskix yazykov» («Turkiy tillarni o'rganishga kirish») asarida turkiy tillar taraqqiyotini quyidagi davrlarga bo'lgan:

1. Oltoy davri (eramizning III asrigacha).
2. Xunn davri (eramizning II asrigacha).
3. Qadimgi turk davri (Y-X asrlar).
4. O'rta turk davri (X-XY asrlar).
5. Yangi turk davri (XY-XX asrlar).
6. Eng yangi davr (Hozirgi turkiy tillar).

Oltoy davrining qat'iy xronologik chegarasi belgilangan emas. Turkiy tillarning oltoy nazariyasiga ko'ra turkiy, mo'gul, tungus-manjur tillari bilan qarindosh hisoblanib, shu tillar birgalikda oltoy tillari oilasini tashkil qiladi. Bu nazariyaga ko'ra turkiy va mo'gul tillaridagi umumiylik bu tillarda gaplashuvchi xalqlarning IY-YII asrlarda Xitoyda, YII-XII asrlarda Baykal tevaragida va XIII-XIY asrlarda Turkistonda o'zaro yaqin munosabatlari natijasida paydo bo'lgan. Turkiy va manjur tillaridagi umumiylik bu tillarda gaplashuvchi xalqlarning YII-X asrlarda Boxay davlati hukmronligi davrida o'zaro kontaktlari orqasida yuzaga kelgan. Mo'gul-tungus-manjur tillaridagi umumiylik X-XIII asrlarda manjurlarning mo'gul yozuvini o'zlashtirishi orqasida yuzaga kelgandir.

Darhaqiqat, Turkiyadan to Yaponiyagacha tarqalgan turkiy tillar tarkibiga hozir 31 til, mo'gul tillari guruhida 17 til, tungus-manjur tillari guruhida esa 14 til va shevalar mavjud. Oltoy tillaridagi umumiy leksik qatlamning ba'zi jihatlariga to'g'ri kelsa-da, lekin turkiy, mo'gul va tungus-manjur tillaridagi ayni bir xil grammatik xususiyatlarga to'g'ri kelmaydi. Bu grammatik xususiyatlar mazkur tillarning genetik qarindoshligi bilangina izohlanishi mumkin. Oltoy tillarining qarindoshligi B.Ya.Vladimirtsev, Ye.D.Polivanov, N.N.Poppe, G.J.Ramsted, V.I.Gipius, O.P.Sunik va boshqalar tomonidan asoslangan, Ular oltoy tillari oilasidagi o'xshashliklar azaldan bo'lganligini va u genetik birlik tufayli mavjud ekanligini ko'rsatadilar.

Oltoy tillaridagi umumiylikni tipologik o'xshashlik sifatida izohlovchi va ularda qarindosh deb hisoblovchi olimlar ham bor. Oltoyshunoslikdagi bu yo'nalishda V.L.Kotvich, L.Ligeti, J.Klousen, A.M.Shcherbak, G.Dyorfer, G.D.Sanjeev kabilarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi.

Shunga ko'ra turkiy tillarning tarixi oltoy tillarining qadimdan bir til bo'lgan-oltoy davridan boshlanadi. Oltoy bobo tili dastlab tungus-manjur va turk-mo'gul tillariga, turk-mo'gul tili esa turk va mo'gul tillariga ajralgan.

Yuqorida aytib o'tdikki, oltoy davri turkiy tillar taraqqiyotining eng qadimgi davr bo'lib, bu davrda turkiy tillar mo'gul, tungus-manjur tillaridan aytarli ajratilmagan edi. Bu haqda B.Ya.Vladimirtsev shunday yozadi: «Mo'gul, turk va tungus tillari o'zining umumiy o'tmishdoshiga egaki, itni shartli ravishda oltoy tili deb atash mumkin. Hozirgi oltoy tili ma'lum emas, balki oltoy tillari, ya'ni mo'gul, turk va tungus tillari borki, ular o'sha tilning taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgandir».

Yuqorida ta'kidlanganidek, turkiy til oilasi to'g'risida turli fikrlar mavjud. Ba'zi olimlar (Ye.D.Polivanov, G.Ramstedt) turkiy tillarni katta oltoy tillar oilasiga kiruvchi guruh deb hisoblab, bu oilaga tungus-manjur, mo'gul, koreys va yapon tillarini ham kiritishadi. Boshqa olimlar (O.Betling, G.Vinkler) ural-oltoy tillar oilasini ajratib, unga yuqorida qayd etilgan tillardan tashqari fin-ugor tillarini ham kiritishadi. Turkiy tillar bilan shug'ullanuvchi olimlarning fikricha turkiy, mo'gul, tungus-manjur tillar orasidagi genetik qarindoshlik uzil-kesil tasdiqlanmagan. Ularni birlashtirishi mumkin bo'lgan narsa-tipologik o'xshashlik bo'lib, bu tillar agglyutinativ tillar guruhiga kiradi. Lekin bu qarindosh degan ma'noni anglatmaydi. Shuning uchun ham ko'p adabiyotlarda turkiy tillar alohida oila sifatida ajratiladi. Turkiy tillar o'zaro yaqin qarindosh tillar bo'lib, bu oilaga kiruvchi birorta tilni o'zlashtirgan kishi shu oilaga kiruvchi boshqa tilni ham tushuna olishi mumkin. Yoqut va chuvash tillari bundan istisnodir, chunki ular ko'pchilik turkiy tillardan ancha uzoqlashgan.

Turkiy qabilalar mo'gul qabilalaridan ajralib chiqqach, ular o'zlarining Xunlar imperiyasini tuzdi. Bu imperiya eramizdan oldingi III asrdan eramizning Y asrigacha hukmronlik qilgan. Xunlar imperiyasi Markaziy Osiyodan Sharqiy Yevropagacha bo'lgan katta territoriyani egallagan. Uning tarkibiga kirdi turk, mo'gul, tungus-manjur va boshqa qabilalar kirar edi. O'zaro urushlar natijasida Xun imperiyasi eramizdan oldingi I asr oxirida 2 qismga bo'linadi. G'arbiy Xun va Sharqiy Xun davlatlariga ajralib ketdi. V.V.Bartolngdning ta'kidlashicha, Xun imperiyasi davrining til xususiyatlarini aks ettiruvchi yozma yodgorliklar yo'q. Shuning uchun ham o'sha davr turkiy tillar xarakterini aniq tasvirlash qiyin. Xitoy va sanskrit tillari sharqda yashovchi turkiy qabilalar tiliga, qadimgi eron va slavyan tillari g'arbda yashovchi turkiy qabilalar tiliga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sir turkiy tillar leksikasida sezilarli iz qoldirgan.

Turkiy, mo'gul, tungus-manjur tillari uchun umumiy bo'lgan qadimgi leksik elementlar hozirgi kungacha saqlanib keladi. Masalan, oltoy tilida tola (tomon), mo'gul tilida tola (vodiy), manjur tilida tola (choi, vodiy).

G'arbiy xunn va Sharqiy xunnlariga bo'liugach, *r-l* tovushli tillarga *z-s* tovushli tillarga ajraldi. *r-l* tovushli tillarga qadimgi bulgor, xazar va hozirgi chitvashlarning avlodlari so'zlashgan bo'lsa, *z—sh* tovushli tillarda esa qadimgi o'g'uz, qirg'iz, qipchoq va qarluqlarining ot-bobolari gaplashgan. Hatto, bu davrda *z-sh* tovushli tillarning tfzlari ham bir-biridan uzoqlasui boshlagan edl. Shuning uchun ham Mahmud Koshgariy o'guz va qipchoq tillarini alohida guruhga, uyg'ur tilini boshqa guruhga kiritib, ular o'rtasidagi fonetik farqlarni ko'rsatib berdi. Masalan, o'g'uz qipchoq tillarida *yiliq suv* deyilsa, uygurlarda *iliq suv* deyilgan. Uyg'urchamen *berdim* birikmasi o'guz qipchoqlarda ben berdim tarzida qo'llaniladi. Bundan anglash mumkinki, xunnlar davrida o'g'uz-qarluq- qipchoq ittifoqi tili bir guruhni tashkil qilib, keyinchalik qarluq va o'guz qipchoq guruhlariga bo'linib ketgan. Undan so'ng esa o'g'uz va qipchoq guruhiga bo'lgan. Umuman olganda, xunnlar davrida barcha turkiy tillar bir-biriga yaqtn uzoqligiga qarab, bir necha guruhni tashkil qilgan. Shuning uchun ham bu tillarda leksik-grammatik jihatdan o`zaro farqlar bor. Ular qadimgi turkiy tilning shakllanish va taraqqiyotiga zamin tayyorlaganlar.

V-X asrga kelib, turkiy tillar bilan mofg'ul tillari bir-biridan tamomila ajralib ketdi.

Turkiy qabilalar V asrda ancha kuchayib, dzlarining ko'chmanchi turk (tukyu) hoqonligini 550 yilda tuzdi. Bu hokonlikning chegarasi Amudaryo, Marv, Balx, Hindistongacha etib bordi. ffzaro urushlar arablar istilosi oqibatida turk davlati ikki qismga: 1) Markaziy Yettisuv bo'lgan garbiy turklarga. 2) Mo'g'uliston bo'lgan sharqiy turklarga ajraladi.

Qadimgi turkiy adabiy tilining yozma yodgorliklari runiy (urxun-enasoy) va uyg'ur yozuvlari orqali bizgacha etib kelgan.

Qadimgi turk davrida turkiy tillar differentsiatsiya qilindi. *d-t* tovushli tillar (qadimgi qirg'iz, qadimgi uyg'ur, o'g'uz)ga *s-z* tovushli tillar (qarluqqa) va *y* tovushli tillar (o'guz, qipchoq, qarluq)ga bo'linadi. Qadimgi turkiy til hozirgi turkiy tillarning shakllanishida asos btildi. Ana shu umumturk negizi tili xususiyatlari hozirgi barcha til tovushlarining grammatik qurilishi va lug`at boyligidagi umumiylikda ko'rinadi.

Hozirda mustaqillikka erishgan turkiy davlatlar dunyoning ko`plab mamlakatlari bilan va birinchi navbatda turkiy ellar bilan bevosita aloqalarni keng yo'lga qo`ya boshladilar. Turkiy yaqinlik, turkiy mushtaraklik va turkiy birlik hozirgi zamonda umumturkiy tilning ko'hna xossalarini sinchiklab tadqiq etish va mushtarak jihatlarni ochib berish, ayniqsa muhim.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Turkiy tillar tarixiy taraqqiyotining asosiy davrlarini ayting.
2. N.A.Baskakov qaysi asarida turkiy tillar taraqqiyotini nechta davrga ajratgan? Har bir davr haqida gapiring.
3. Turk hoqonliklari va ulaming paydo bo'lishi haqida gapiring.

### **3-mavzu: Turkiy tillar tarixini o'rganish manbalari**

#### **R e j a:**

1. Turkiy xalqlar yozuvi tarixining rivojlanish bosqichlari.
2. O`rxun-Enasoy yodgorliklarining topilishi, o`rganilishi.
3. Qadimgi uyg'ur yozma yodgorliklari.
4. Qoraxoniylar davri yodgorliklari.
5. Xorazm yodgorliklari.

**Tayanch so'z va iboralar:** *Turk-run yozuvi, Vrxun-Enasoy, Tolas yodqorliklari, Kul tigin, Bilga hoqon, Tunyuquq bitiktoshi, Suvarna yoki Oltun yorug\ turkiy yodgorliklar tadqiqotchilari.*

Dunyoda qarindosh tillar ko'p. Ammo bular orasida turkiy tillar bir-biriga o'ta yaqinligi bilan alohida ajralib turadiki, bu yaqinlik tilning barcha yaruslarida biron bir darajada aks etgan. Shuning uchun G.Vamberi «Turkiy tillarining har biri mustaqil ma'nodagi til btilmay, yagona turkiy tilning nisbatan mustaqillashgan shevalaridir», degan edi'.

Turkiy tillarning qadimgi adabiy tilini o'zida qamrab olgan juda ko'p nodir yozma obidalar mavjud bo'lib, ularning ko'plari bizgacha etib kelgan. Ular turli yozuvlarda ifodalangan bo'lib, har xil nomlar bilan atalgan. Qadimgi turkiy obidalarini turkiy tillarni birontasiga tegishli deb bo'lmaydi.

Run yozuvidagi obidalar katta territoriyaga tarqalgan bo'lib, ular XVIII asrda shved ofitseri F.J. Tabbert Stranlenberg va rus ofitseri S.Ye. Remezovlar tomonidan xabar qilinadi.

1890 yilda Fin-ugor ilmiy jamiyati Urxun daryosiga arxeologik ekspeditsiya uyushtiradi. 1891 yil esa Rossiya Fanlar Akademiyasi akademik V.V. Radlov rahbarligida Urxun daryosiga katta ekspeditsiya yubordi. 1892 yilda bu ekspeditsiyaning ish natijalari ikkita atlas holda nashr qilinib ularda noma'lum yozuv yodgorliklarining surati, ular topilgan joylarning rejasi, xaritasi va boshqa ma'lumotlar berilgan edi. Yodgorliklarni birinchi bo'lib Daniya olimi V. Tomsen o'qishga muvaffaq bo'ldi. Tomsen bu yodgorliklarni o'qishda turli alfavitlarga tayanmay ishni harflarning o'zaro nisbati va o'xshashliklarni aniqlashdan boshladi. Turkiy tillardagi ba'zi bir tovushlarning qator kelishi yoki kelmaslik holatini aniqlab, uni yodgorlikka solishtirib ko'rdi. Tomsen yodgorlik yozuvini chapdan t'fngga qarab emas balki, o'ngdan chapga qarab o'qish kerakligini aniqladi. U birinchi bo'lib lyvh (tangri-menpi) va nyNh (turc -turk) srfzlarini o'qib, mazkur yodgorlik turkiy xalqlarga tegishli degan xulosaga keldi. 1893 yilning 25 noyabrida deyarli barcha harflarning aniqlab yodgorliklarning «siri»ni ochdi. Bu orada V.V. Radlov ham Tomsen kashfiyotidan bexabar holda 15 ta harfni aniqlaydi.

V.V. Radlov o'zining V. Tomsenning kashfiyotiga tayanib, Urxun daryosi atrofiga topilgan bir necha yodgorliklar matnini birinchi bo'lib tarjima qildi.

Shunday qilib, Daniya olimi V. Tomsen ikki so'zni (o'qigan bo'lsa-da, ayni bir vaqtda nemis olimi V.V. Radlovning ham bu yozuvlarni o'qishda xizmatlari kattadir. Bu yozuv turkiy xalqlarning islomgacha qo'llangan 38 harfdan iborat Urxun-Enasoy yozuvi bo'lib, «turk-run yozuvi», «Sibirning yozuvi», «turkiy yozuv», «dulbarjin» kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Yodgorliklar o'ngdan chapga qarab yozilgan va harflari bir-biriga bog'lanmagan.

Turkiy xalqlar islomgacha urxun-enasoy alifbosidan tashqari, eski uyg'ur, moniy, braxmon, sffgd, suryoniy yozuvlaridan ham foydalanganlar. Lekin eng ko'p qo'llangani O'rxun-Enasoy yozuvidir. Urxun-Enasoy yodgorliklari qadimgi turkiy qabilalarning madaniy-siyosiy markazlashuvi va yashash joylariga qarab guruhlangan;

1) Shimoliy Mo'g'uliston yodgorliklari. Bu guruhga Bilga hoqon, Kul tigin, Tunyuquq, Ungin, Kulichur, Selenga, Qorabolasogun, Suji yodgorliklari, shuningdek, Asxete, Xangay va Gobidan topilgan yodnomalar kiradi. Turkiyshunoslikda bu guruh Urxun yodnomalari deb yuritiladi.

2) Enasoy yodgorliklari hozirgi Krasnoyarsk, Xakasiya va Tuva muxtor viloyatlari hududida topilgan. Bu yodgorliklarning 50 dan ortiq matni o'qilgan va nashr qilingan. Bu yozuv eramizning Y-YII asrlariga mansub. Enasoy yodnomalariga Enasoy (Yenisey) daryosi umuman, Janubiy Sibirdan topilgan va qoyalarga, tangalarga o'yib yozilgan yuzdan ortiq yozuvlar kiradi.

3) Lena-Baykalboyi yodnomalari. Ular o'qilishi qiyin bo'lgan matnlardan iborat.

4) Oltoy yodnomalari. Bu guruh bir necha qoya va kumush idishiarga bitilgan yozuvlardan tashkil topgan.

5) Sharqiy Turkiston yodnomalari. Bular Turfon, Dunxuan va Mirandan topilgan, tosh va qogozlarga bitilgan yozuvlar.

6) O'rta Osiyo guruhiga kiruvchi yodnomalar. Bular Yettistiv va Farg'ona guruhlaridan tashkil topgan bo'lib, tangalar, uy-rtfzgor buyumlari, yogochlarga, sopol va metallarga bitilgan yodnomalardan iborat.

Yodnomalar, avvalo, turkiy xalqlar tarixini o'rganish uchun asosiy manba hamda yozma adabiyotning ilk namunasidir. Mazkur bitiktoshlar orasida Kul tigin, Bilga hoqon, To'nyuquq yodnomalari alohida ajralib turadi. Bu bitiktoshlar run, runiy (runa —sirli, yashirin) yozuvi nomi bilan yuritilgan. Tolas obidalari. Hozirgi Jambul yaqinidagi Tolas daryosi sohillaridan topilgan. Y-YI asrlarga tegishli bo'lib, oltita tosh va bir cho'p tayoqqa bitilgan. Ular 1896-1897 yillarda V.A. Kallaur, A. Geykel, O. Donner tomonidan kashf etilgan. Bu yozuvlarni V.V. Radlov, P.M. Melioranskiy, A. Geykel, Yu. Nemet, S. Ye. Malovlar tarjima qilib, matbuotda e'lon qilishgan.

O'rxun obidalari mashhur hoqon va amaldorlari sharafiga o'rnatilgan. Bular YII-YIII asrlarga mansub. O'rxun va Selenga daryolari yaqinidan topilgan.

1. Ungin (Ongin) bitiktoshi. Qutlug' hoqonga bag'ishlangan. 692 yilga tegishli. V.V. Radlov 1895 yilda asl matnini va transkripsiyasini kelishicha tarjimasini bilan nashr ettiradi. 62 satrdan iborat.

2. To'nyuquq bitiktoshi. 1897 yilda Ye. Klements Shimoliy Mtf'g'ulistonda Bo'in Sokto manzilidan topgan. Yodnoma ikkinchi turk hoqonligiga asos solgan Eltarish hoqonning

maslahatchisi va sarkardasi, Xitoy yilnomalarida Yitanchjen (To'ngich jadval) deb yuritilgan bu bitiktosh To'nyuquqqa bag'ishlanib, 712-716 yillar orasida uning o'zi tomonidan marmargayozdirilgan.

3. Kul tigin bitigtoshi. Rus o'lkashunosi N.M. Yadrintsev 1889 yilda Mo'g'ulistonning Kosha Seydam vodiysida Urxun daryosining Ko'kshin irmog'idan topgan.

4. Bilga hoqon bitigtoshi. N.M.Yadrintsev 1889 yilda Kul tigin bitigtoshi bilan birga Urxun daryosining Ko'kshin irmog'i atrofida topgan. Bilga hoqonning asli ismi Mo'g'uliyon. U taxtga o'tirgach, Bilga (dono) hoqonnomini olgan.

5. Quli chur bitigtoshi. YII asrga tegishli. 1912 yilda polyak olimi V.Kotvich Mo'g'ulistonning Ulan-Bator yaqinidagi Ixe-Xushotu manzilidan topgan va rus turkshunosi A.N.Samoylovich bilan birgalikda 1928 yili nashrettiradi.

6. Moyun chur bitigtoshi. YII asrga tegishli. 1909 yilda finlandiyalik olim G.I.Ramstedt Shimoliy Mo'g'ulistonning Selenga daryosi yaqinidan topgan va 1913 yilda tarjimai bilan nashr ettiradi.

7. Irq bitigi (folnoma) ingliz olimi A.Steyn Xitoydagi «Ming budda g'ori» ibodatxonasidan topgan. 1912 yilda V.Tomsen nashr ettirgan. Bu bitigtoshlar turk hoqonligi davrida runiy yozuvida bitilgan. Turk hoqonligi tarkibiga kirgan turklarning bevosita davomchisi bo'lgan uygurlar juda katta meros o'sha davr tilini aks ettiruvchi yozma yodgorliklarqoldirgan.

Uyg'ur yozuvi oromiy yozuvi asosida shakllangan bo'lib, u keyinchalik mo'g'ullarga va mo'gullardan manjurlarga o'tgan. Uyg'ur yozuvi YI asrdan XY asrgacha turkiy xalqlarda va buddachilar orasida XYIII asrgacha ishlatilgan. Uyg'ur alfaviti bilan yozilgan yodgorliklarni o'z xususiyati va mazmuniga ko'ra, quyidagilarga kiritish mumkin.

1. Uyg'ur yodgorligi—Suji, Shins-Uusu va Sharqiy Turkistonda topilgan. Yaglaqarxon qabridan topilgan namunani Suji yodgorligi, Muyun-chura qabridan topilgan namunani Selenga yodgorligi deb yuritilgan. Qog'ozda topilganini Turfon yodgorligi deb atalgan.

2. Manixey (monaviy) yodnomasi. Manixey madaniyati yodgorligi sifatida «Xuastuanift (monaviylaming tavbanomasi)ni ko'rsatish mumkin. Bu obidani 1910-1911 yillarda ingliz olimi Le Kok Berlin va Londonda nashr ettirgan. L.V.Dmitrieva 1963 yilda lotin alifbosida ruscha tajribasi bilan nashr ettirgan. Manixeylarga tegishli yodgorliklarni dastlab ingliz olimi A.Shteyn, nemis olimi A.Lekok, frantsuz olimi P.Pellngi topib, fan olamiga ma'lum qilgan.

3. Buddiy yodnomasi — budda diniga sig'ingan uygurlar tomonidan yaratilgan bo'lib, «Suvarna» yoki «Oltun yoruq» deb yuritilgan. Asli qadimgi hind - sanskritcha «suvarnaprabxasa» (Oltin jilo) X asrda Sifigu Seli Tittung tomonidan turkiy tiliga o'girilgan. 1909-11 yillarda S.Ye.Malov Suchjou shahriga yaqin Ungshagudan topib, 1917 yilda nashr ettirgan.

4. Sekiz yukmak. Tufondan topilgan bu yodgorlik matnini nemis olimlari V.Bang, A.fon Gaben va turk olimi G.R.Rahmatiyalar 1934 yilda Berlinda nashr ettirganlar.

XI-XY asrlarga aid ko'pgina yirik asarlar turk-uygur yozuvida tartib qilingan. Masalan, «Me'rojnomasi», «Tazkirai avliyo», «Baxtiyornoma» kabi bir qator asarlar shu yozuvda ko'chirilgan.

Qoraxoniylar davri yodnomalari uyg'ur va arab yozuvida bitilgan. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» (Baxt keltiruvchi bilim), M.Koshgariyning «Devonu lugotit turk» («Turkiy so'zlar lug'ati»), Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni») asari, «Devoni hikmat» asarlari XI-XII asrlarda yaratilgan obidalar kiradi. Shuningdek, Rabguziyning «Qisasi Rabguziy», Aiming «Qissai Yusuf», «O'g'uznoma», «Tafsir» kabi asarlari XIII-XIV asrlarda yaratilgan turkiy yodnomalardir.

Xorazm obidalariga Sayfi Saroyining «Guliston bit-turkiy» asari, Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si, Qutbning «Xisrav va Shirin» dostoni, Mahmud as-Saroyining «Nahju-l-Faradis» kabi turkiy tilida bitilgan qo'lyozmalar kiradi. Bu qo'lyozmalarni topilishi va nashr ettirilishida AM.Sherbak, E.Nadjip, N.A.Baskakov, A.K.Borovkov kabi turkolog olimlarni xizmati katta.

Qipchoq-o'g'uz obidalariga XIV-XV asrlarda arab yozuvida bitilgan quyidagi manbalar kiradi.

Abu Xayyonning «Kitob-al-idrok li-lison al-atrok», Jamoliddin Abu Muhammad at-Turkiyning «Kitob ulgat almushtoq fi-lugat at-turk va-l-qifchoq», muallifi noma'lum «Kitob at-tuhfa



az-zakiya fil-lug'at at-turkiya”, ibn Muhanning “Li-lison al-arabiy va-l forsiy va-l turkiy va-l-mo'g'uliy” asarlari kiradi.

Umuman, bu obidalar Navoiygacha bo'lgan turkiy tillarning fonetikasi, grammatikasi va leksikasini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Qadimgi turkiy yodgorliklar deganda qaysi yodgorliklarni tushunasiz?
2. Turkiy obidalar qanday yozuvlarda yaratilgan?
3. Turkiy yodgorliklar jug'rofiy joylashuviga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?
4. Urxun-Enasoy yodgorliklari majmui qaysi yodgorliklardan iborat va ular qaysi davrlarga mansub?
5. Uyg'ur yozuvida qaysi yodgorliklar bizgacha etib kelgan?
6. Turkiy obidalar qaysi turkolog olimlar tomonidan o'rganilgan?

#### **4-mavzu: Turkiy tillar tasnifi**

##### **Reja:**

1. Turkiy tillar va ularni tasnif qilish masalasi.
2. Turkiy tillarni tasnif qilish tarixi. Mahmud Koshg'ariy tasnifi va uning ahamiyati.
3. XIX asr oxiri va XX asrda turkiyshunoslar tomonidan qilingan tasniflar.
4. Turkiy tillar tasnifiga oid tadqiqotlar tahlili.

**Tayanch so'z va iboralar:** *Tillar oilasi, genetik qarindoshlik, morfologik xususiyat, tipologiya, geografik joylashuv.*

Tillarni qiyosiy-tarixiy metod asosida tadqiq qilishning mahsuli sifatida tilshunoslikda geneologik tasnif maydonga keldi. Bu tasnifga ko'ra, tillar bir umumiy manbadan kelib chiqqanligi, o'xshashligi, qarindoshligiga qarab oilalarga ajratiladi.

Turkiy tillarning hozirgi holatini ilmiy jihatdan o'rganish uchun ularning uzoq tarixiy taraqqiyot yo'llarini nazariy bilish zarur.

Til taraqqiyotining turli davrlarida amal qilgan qonunlarni va shu qonuniyatlarga muvofiq tilda voqea bo'lgan fonetik, leksik, grammatik o'zgarishlarni o'rganishga qiziqish qadimgi davrlardayoq boshlandi.

Tillarning taraqqiyot tarixini o'rganishdagi eng muhim masalalardan biri —tasnifdir. Tasnif uchun turkiy tillarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, o'zaro munosabatlari aniqlanishi lozim.

Ma'lumki, turkiy tillarning tasnifi muammosi tillarni davrlashtirish muammosi bilan ham bog'liq. N.A.Baskakovning aytishicha, tasnif ma'lum darajada tillar tarixini davrlashtirish demakdir. Chunki tasnifda ham, davrlashtirishda ham bir xil tamoyilga, ya'ni tarixiylik tamoyiliga asoslanadi. Bundan tashqari, turkiy tillarni tasnif qilganda areal lingvistika materiallaridan foydalangan. holda tillarning distinktiv (har bir tilga xos) belgilarini aniqlash lozim boladi.

Turkiy tillarning tasnifi XI Mahmud Koshg'ariy tomonidan berilgan bolsa ham, XIX asrgacha turkiy tillarning mukammal tasnifi yaratilmadi. XIX asrdan boshlab turkiy tillarni rus va chet el olimlari tasnif qila boshladilar. Bu tasniflarda bir xil xillik yo'q edi. Ularning ba'zilari turkiy tillarni hududiy-jo'g'rofiy jihatdan (tasnif qilsa, boshqalari tillarning bir xil lingvistik belgisiga asoslanadi, ba'zi bir xil tasniflarda turkiy tillar tarixi xalq tarixi bilan yetarlicha bog'lanmaydi.

Turkiy tillar tasnif, muammosi bilan M.Koshg'ariy, I.N.Berezin, N.L.Ingmimkiy, F. Ye.Korsh, A.N.Samoylovich, S. Ye.Malov, V.A.Bogorodskiy, I.A.Batmanov, N.A.Baskakov, F.B.Stralenberg, A.Balngbi, A.Remyuza, A.Palngmlada, G.Vamberi, X.Vinkler, K.Foy, G.Raxmatiy, R.Arat, T.Bangi o'gli, T.Tekin, L.Ligeti, I.Nemet, K.Derfer, K.Grenbek, M.Ryasyanen, G.Ramstedt, I.Bentsig, K.Menges, V.Shott kabi olimlar shug'u llanganlar.

Tillarning taraqqiyot tarixini o'rganishdagi eng muhim masalalardan biri —tasnifdir. Tasnif uchun turkiy tillarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, o'zaro munosabatlari aniqlanishi lozim.

Ma'lumki, turkiy tillarning tasnifi muammosi tillarni davrlashtirish muammosi bilan ham bog'liq. N.A.Baskakovning aytishicha, tasnif ma'lum darajada tillar tarixini davrlashtirish demakdir. Chunki tasnifda ham, davrlashtirishda ham bir xil tamoyilga, ya'ni tarixiylik tamoyiliga asoslanadi.

Turkiy tillarning tasnifi XI Mahmud Koshg'ariy tomonidan berilgan bo'lsa ham, XIX asrgacha turkiy tillarning mukammal tasnifi yaratilmadi. XIX asrdan boshlab turkiy tillarni rus va chet el olimlari tasnif qila boshladilar. Bu tasniflarda bir xillik yo'q edi. Ularning ba'zilari turkiy tillarni hududiy-jo'g'rofiy jihatdan tasnif qilsa, boshqalari tillarning bir xil lingvistik belgisiga asoslanadi, ba'zi bir xil tasniflarda turkiy tillar tarixi xalq tarixi bilan yetarlicha bog'lanmaydi.

Turkiy tillar tasnif, muammosi bilan M.Koshg'ariy, I.N.Berezin, N.Ilmanskiy, F. Ye.Korsh, A.N.Samoylovich, S. Ye.Malov, V.A.Bogorodskiy, I.A.Batmanov, N.A.Baskakov, F.I.Stralenberg, A.Remyuza, R.Arat, T.Tekin, Nemet, K.Derfer, K.Gryonbek, G.Ramstedt, K.Menges, V.Shott kabi olimlar shug'ullananganlar.

M.Koshg'ariy «DLT» asarida turkiy tillarning birinchi tasnifini bergan. U turkiy tillarni tasnif qilganda ikki tamoyilga asoslanib ish ko'radi: 1) qabilaviy tillarning sofliğiga (to'g'riligiga) ko'ra; 2) qabilaviy tillardagi fonetik va morfologik farqlariga ko'ra.

Mahmud Koshg'ariy qabilaviy tillarning sofliği tushunchasi ostida turkiy bo'lmagan tillar ta'siri darajasini tushunadi. Shunga ko'ra turkiy tillarni ikki guruhga ajratadi: a) sof, to'g'ri til; b) aralashgan turkiy qabila tillari.

Faqat turkiy tilda so'zlovchi urug' va qabilalar; turkiy va boshqa tillarda so'zlovchi urug' va qabilalar.

Birinchi guruhga arg'u, qirg'iz, o'g'uz, to'xsi, yag'mo, chigil, jaruq kabi tillar kiritilib, yamak va boshqird tillarini ham bu tillarga yaqin deb ko'rsatadi. Uning fikricha tillarning yengili o'g'uz tili, eng to'g'risi va yaxshisi yag'mo, to'xsi tillari. Itil, Irtish bo'ylaridan uyg'ur shaxharlarigacha bo'lgan hududlardagi tillar ichida Hakoniya o'lkasida yashovchi qabilalar tili (qoraxoniylar davlati tili) ni eng ochiq va ravon til deb baholaydi.

Ikkinchi guruhga Bolosog'un, Tarozi, Chin, Xo'tan, Tibet shaharlari aholisining tili kiritilib, ularning sof turkiy tilda emas, balki boshqa tillardan ham foydalanib so'zlashishlarni qayd etadi. Yil-jyl, yur-jur, men-ben, muz-buz, til-dil, tag-dash, to'rt-do'rt kabi. Mahmud Koshg'ariy turkiy tillarni fonetik va morfologik farqlariga ko'ra tasnif qilishda tillarning geografik tarqalishi tamoyilini ham ko'zda tutadi. U fonetik va morfologik mezonga asosan turkiy tillarni ikki guruhga ajratadi:

1. Chigil, yag'mo, tuxsi, qorluq, uyqurlardan boshlab yuqori Chingacha bo'lgan qabilalar tillari. (sharqiy)

2. O'g'uz, argu, qipchoq, totor, yamaq, suvorin va Rusdan Vizantiyagacha (Rumgacha) joylashgan qabilalar tillari. (g'arbiy)

Sharqiy va g'arbiy turk qabilalari tillari orasida qator fonetik hamda morfologik farqlar mavjud.

Umuman, Mahmud Koshgariy XI asrdagi turkiy qabila tillarining tasnifi uchun 6 fonetik va 4 morfologik xususiyatni asos qilib olgan. Bularning barchasi Mahmud Koshgariyning turkiy tillarning asosiy xususiyatlarini, ularni orasidagi o'xshash va farqlarni yaxshi tushuna olganligidan, uning chuqur va har tomonlama lingvistik bilimiga ega ekanligidan dalolat beradi

“DLT”dagi 20 ta qabila nomlari

Turklar aslida 20 qabiladur. Har bir qabilaning saosqsiz allaqancha urug'lari bor. Men bulardan asosini, ona urug'larini yozdim, shahobchalarini tashladim.

Bajanak, qipchoq, o'g'uz, boshqirt, yamak, basmil, qay, yabaqu, tatar. qirqiz. chigil, to'xsi, yag'mo. ig'raq, jaruq, jumul, uyg'ur, tangut, xitoy, tafqach.

Bulardan tashqari, yana bir qancha qabilap va elatlar nomi tilga olinib, ular haqida ham yo'l-yo'lakay fikr bildirilgan: sug'daq, kanjak, arg'u, xo'tan, tubut, bulg'or, suvar, tojik.

Qarluq, jikil, bo'lak, kujo, xalach, turkman, bayat.

O'g'uz guruhiga tegishli 22 urug' nomi ko'rasatilgan – qiniq, qayig', bayundur, ifa/iva, yiva, salg'ur, afshar, bektili, buktuz, boyot, yozg'ir, aymur, qorabulluq, olquabuluq, igdar, urakir, yuragir, tutirqa, ulayundlug', tugar, bajanak, juvoldor, jabgt, jaruqlug'.

M.Koshg'ariydan keyin turkiy tillarni o'rganish va tasniflash, asosan, XIX asrdan boshlandi. 1730 yilda Stokgolmda Filipp Iogann Tabber Stralenberg “Evropa va Osiyoning shimoliy va sharqiy qismlari” nomli asarida Sibirning tarixi, iqlimi, shaharlari, Sibirda, Osiyo va Yevropaning shimoliy va sharqiy qismida yashovchi 32 xalqni, ularning tilini o'rganib, *ota, ona, shahar, ko'z* kabi tushunchalarni ifodalovchi 60 ta so'zni shu tillarga tarjima qilib, ularning bir-biriga munosabatini aniqlaydi. U Sibir o'lkasidagi xalqlarni tatarlar deb nomlab, bu tillarni 6 guruhga ajratadi. 1. venger,

fin, mordva, cheremis, permyak, votyak, ostyak; 2. turk, qrim-tatar, o'zbek, qirg'iz, turkman, tatar yoqut, va chuvash; 3. samodiy tillari; 4. mo'g'ullar-manjurlar- qalmlar, sanjurlar, tangutlar, kamasin. 5. tunguzlar, arinlar. Koryaklar. Qurillar. 6. avar, qumiq, kubachin, cherkas. Kononov bu tasnifda bir qator xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa ham, lekin uning ilmiy asosi to'g'ri, shuning uchun bu tasnif fan tarixiy ijobiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning asari Yevropada katta qiziqish bilan qarshi olingan: asar ingliz (1738), fransuz (1757), ispan tiliga (1780) tarjima qilingan. 1820 yilda A.Remyuza turkiy tillarni 5 guruhga bo'ladi; 1) yoqut tili: 2) uyg'ur tili (bunga chig'atoy va turkman tillarini ham kiritgan), 3) no'g'ay tili (Qrim-Astraxan): 4) qirg'iz tili: 5) turk tili (bunga chuvash tilini ham kiritgan).

Av gust Myuller (1887) yilda Vamberi tajribasiga asoslanib, o'zining "Islom tarixi" asarida yoqut va chuvash tillaridan boshqa turkiy tillarni uch guruhga bo'ladi: 1. Shimoliy turk tillari. 2. Sharqiy turk tillari ( Qashqar, o'zbek, Buxoro, Xiva: Qrim-tatar, Qozon tatarlari tili). 3. G'arbiy turk tillari (Ozarbayjon, eron turklari, usmonli turk va turkman tillari).

V.V.Radlov ilk tasnifida turkiy tillarni 3 guruhga bo'lgan-Shimoliy, janubiy. qurama. Qurama guruhni yaga g'arbiy va sharqiy kichik guruhga ajratadi. Radlov bu tasnifni keyingi tadqiqotlarida qata ishlab, o'zining "Shimoliy Turkiston tillarining fonetikasi" nomli asarida 4 guruhga bo'linadi: 1. Sharqiy guruh – oltoy, cho'lim, xakas tillari kiritilgan. 2. G'arbiy guruh — bunga G'arbiy Sibir tatarlari, qirg'iz, boshqird, Volga boyi tatar tillari, qozoq, qoraqalpoq tillari kiritildi. 3. O'rta Osiyo guruhi.- bunga o'zbek va uyg'ur tillari kiritildi. 4. Janubiy guruh-bunga turkman, ozarbayjon, turk va qrim-tatar tillarini kiritdi. Radlov tasnifi asosan turkiy tillarning fonetik xususiyatlariga asoslangan.

V.A.Bogorodskiy 1921 yilda turkiy tillarni geografik va fonetik xususiyatlari asoslariga asoslangan holda 7 guruhga bo'ladi. 1. Shimoliy-sharqiy guruh: yoqut, karagas, tuva. Bu guruhdan yoqut tili so'z boshidagi s tovushining yo'qolishi, karagas va tuva tillari esa y tovushining ch tovushiga va ch tovushining sh tovushiga o'tishi bilan xarakterlanadi; 2. Xakas guruhi: xakas tili. Bu guruh uchun xos xususiyat so'z oxiridagi sh tovushining ch tovushiga o'tishi; 3. Oltoy guruh: oltoy tili o'z shevalari bilan kiritiladi. Bu guruh qirg'iz tiliga fonetik yaqinligi bilan xarakterlanadi; 4. G'arbiy Sibir guruhi: chulim, ishim, tyumen tatarlari tili. G'arbiy Sibir guruhining asosiy fonetik xususiyati eski turkiy tillardagi ch tovushi o'rniga s tovushining qo'llanishi kuzatiladi.; 5. Volga bo'yi va Ural guruhi: tatar va boshqird tillari. Bu guruh uchun xarakterli xususiyat unilarning qisqarishi bo'lib, boshqa turkiy tillardagi ye tovushi i tovushiga va o tovushi u tovushiga aylangan; 6. O'rta Osiyo guruhi: uyg'ur, qozoq, qirg'iz, o'zbek qorqalpoq. Bu guruhni birlashtirib turuvchi belgilar ko'rsatilmagan; 7. Janubiy-G'arbiy guruh: turkman, ozarbayjon, qumiq, gagauz, turk tillari va chuvash tili. Bu guruh ham to'liq izohlanmagan. V.A.Bogorodskiy turkiy xalqlar va tillarining tarixiy taraqqiyotini yetarli hisobga olmagan. Turkiy tillarga kiruvchi karaim va nug'ay tillari hech qaysi guruhga kiritilmagan. F.Ye.Korsh turkiy tillarni fonetik xususiyatlaridan tashqari, morfologik xususiyatlarini ham hisobga olgan holda tasnif qilgan.

1. Shimoliy guruh: qirg'iz. Qozoq. Oltoy, Volga tatarlari, Shimoliy Kavkaz tatarlari. Bu tillarning fonetik-morfologik xususiyatlari quyidagi so'zlarda aks etgan- *tau, qolg'an, sarbi, kele turur*. 2. G'arbiy guruh: ozarbayjon, turkman, turk, gagauz-*dag, kalan, sarbi, geler, gelir*; 3. Sharqiy guruh: O'rxun-Enisey yodgorliklari yozuvi tili, eski uyg'ur tili, chig'atoy, qipchoq (polovets) kabi o'lik tillar hamda jonli tillardan karagas va xakas - *tag', sarbiq', qalg'an, kelur*. 4. Aralash guruh: yoqut va chuvash tillari. Bu tillar boshqa turkiy tillardan fonetik, grammatik hamda leksik jihatdan keskin farq qilishi bilan farqlanadi. **A.N.Samoylovich** fonetik va morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tasniflaydi va har bir guruhga asosiy fonetik xususiyatlaridan kelib chiqib nom beradi. 1. **R-guruh:** hazar va bulg'or kabi o'lik tillar va chuvash tili. *Taxar, ura, pul, tau//gu, sarbi, qalan // yulna*; **D-guruh:** O'rxun-Enisey yodgorliklari yozuvi tili, eski uyg'ur tili kabi o'lik tillar hamda jonli tillardan karagas, salar, tuva, sariq uyg'ur, shor, xakas va yoqut – *toquz, adaq/azaq. pol, tag', sariq, qalg'an*. **Tau guruh:** oltoy, qirg'iz. qumiq, qorchoy, balqar, karaim, tatar, boshqird, qozoq, no'g'ay- *tog'uz, ayaq, bol//bul, tau, sarbi, qalg'an*. **Tag'lyiq guruh:** eski o'zbek adabiy tili, hozirgi uyg'ur, hozirgi o'zbek va tuva tillari- *toquz, ayaq, bol, tag', sarbiq, qalg'an*. **Tag'lyi guruhi:** o'zbek tilining Xorazm shevasi kiritilgan- *doquz, ayaq, bol, tag', sarbi, qalg'an*. **Ol guruh:** turkman, ozarbayjon, usmonli turk, gagauz tillari kiritilgan. *doquz, ayaq, ol, dag', sarbi, qalan*. guruh tomonidan berilgan. tasnifi turkiy tillarning hududiy yaqinligiga qarab tuzilgan. S.Ye.Malov tasnifida qadimgi

turkiy cho'ziq va ikkinchi darajali cho'ziq unilarning paydo btflish masalalarini hisobga olgan. Shunga ko'ra, turkiy tillarni eng qadimgi, qadimgi, yangi, eng yangi turk tillariga ajratadi.

N.A.Baskakovning tasnifida har bir turkiy tilning fonetik, leksik, grammatik belgilarigina hisobga olinmasdan, balki har bir turkiy xalqning tarixiy shakllanish jarayonini, uning genezisini ham hisobga olinadi. Shu tamoyillarni hisobga olgan holda u turkiy tillarni quyidagicha tasnif qiladi. Dastlab ularni ikki tarmoqqa ajratadi: a) g'arbiy xunn tarmogi; b) sharqiy xunn tarmogi.

Birinchi tarmoqqa quyidagi 4 shohobcha kiritiladi;

1. Bulg'or tarmog'i. Bunga qadimgi tillardan bulg'or va xazar tillari, hozirgi tillardan chuvash tili kiritiladi.

2. O'g'uz tarmog'i. Bu quyidagi shohobchalardan iborat; a) o'g'uz-turkman shohobchasi. Bunga qadimgi o'g'uz-turkman tili (X-XI asrlar) va hozirgi turkman, turuxmen tillari kiritiladi; b) o'g'uz-bulg'or tillari. pecheneg tili, Bolqondagi turkiy tillar, gagauz. kiritiladi; v) o'g'uz-saljuq shohobchasi. qadimgi saljuq, eski usmonli turk, eski ozariy va hozirgi ozarbayjon, turk va qrim tilining ayrim lahjalari kiradi;

3. Qipchoq tarmog'i. U quyidagi shohobchalardan iborat: a) qipchoq-o'g'uz shohobchasi. qadimgi qipchoq va hozirgi qo'miq, qarayim, qorachay-bolqor va qrim tilining ba'zi lahjalari kiradi; b) qipchoq-bulg'or shohobchasi. Hozirgi tatar, boshqird tillari kiritiladi; v) qipchoq-no'g'ay shohobchasi. Hozirgi no'g'ay, qozoq, qoraqalpoq tillari kiritiladi.

4. Qarluq tarmog'i quyidagi shohobchalardan iborat: a) qarluq-uyg'ur shohobchasi. qadimgi uyg'ur tili kiradi; b) qarluq-xorazm shohobchasi. Qarluq-xorazmiy, chig'atoy turkchasi, Sharqiy Oltin O'rda turkchasi, eski o'zbek tili, hozirgi o'zbek va uyg'ur tillari kiradi.

Sharqiy xun tarmog'i esa ikki shohobchadan iborat: 1) uyg'ur-o'g'uz shohobchasi. a) uyg'ur-turk guruhi. Qadimgi turk, qadimgi uyg'ur, qadimgi qirg'iz va hozirgi tuva, tofa tillari kiritiladi; b) yoqut guruhi- yoqut lahjalari kiritiladi; v) xakas guruhi- xakas lahjalari, shor tili, chulim tatarlari tili, qamasin tili, oltoy tilining shimoliy lahjalari va sarig' uyg'ur tili kiradi; 2) qirg'iz-qipchoq shohobchasi. Qirg'iz va oltoy tilining ayrim lahjalari kiradi.

Ushbu olimlar tomonidan amalga oshirilgan tasniflarni asosiy xususiyatiga ko'ra 4 guruhga bo'lish mumkin.

1. V.V.Radlov, S.Ye.Malov fonetik belgilarga asoslagan holda tasnif qiladi.

2. F.Ye.Korsh, A.N.Samoylovich. A.Remyuza fonetik-morfologik xususiyatlariga asoslagan holda tasnif qilgan.

3. O.Byotling. K.Menges, N.A.Baskakov til xususiyatlari va o'zaro genetik aloqalariga asoslanadi.

4. A.Myuller. V.A.Bogorodskiy turkiy tillarda gaplauvchi xalqlarning geografik joylashuviga asoslagan xolda tasnif qilgan.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Turkiy tillarini tasniflashdagi asosiy mezonlar haqida gapiring.
2. Turkiy tillarning asosiy xususiyatlarini guruhlab ko'rsating.
3. Mahmud Koshgariy qanday tatnoyilga asoslanib turkiy tillarni tasnif qilgan?
4. A.N.Baskakov tasnifining ahamiyatini tushuntiring.
5. V.A.Rogorodskiy, V.V.Radlov, F.Ye.Korsh, A.N.Samoylovich, Bentsing va Menges tasniflarini qanday xususiyatlarga qarab tasnif qildilar, ularning farqlari nimada?

### **5-mavzu: Turkiy xalqlarning yozuvi tizimi**

#### **R e j a:**

1. Yozuvning paydo bo'lishi.
2. Turkiy xalqlar yozuvi tarixining rivojlanish bosqichlari.
3. O'rxun-Enasoy yozuvlari.
4. Arab alifbosi va uning kelib chiqishi tarixi.
5. Lotin alifbosi va uning kelib chiqishi tarixi.
6. Kirill alifbosi va uning shakllanishi.

**Tayanch so'z va iboralar:** yozuvning paydo bo'lishi, piktografik, ideografik, bo'g'inli yozuvlar, fonografik yozuv, O'rxun-Enasoy yozuvi, sug'd, moniy, braxma, suryoniy, arab, lotin, kirill yozuvlari.

Insoniyat tarixida yozuv amaliyotini piktografik, ideografik, bo'g'inli yozuvlar boshlab berdi. Fonetik yozuv esa lingvistik bilimlar takomillashgan davrga to'g'ri keladi. Turkiy xalqlarning yozuv madaniyati tarixida butun boshli yozuvlar tizimi amal qilgan. Ba'zi yozuvlar xalqning madaniy, ijtimoiy-siyosiy yuksalishi, davlat va jamiyat taraqqiyoti ta'sirida yuzaga kelgan bo'lsa, boshqa birlari diniy ta'sirlar yoki qo'shni xalqlar bilan bo'lgan aloqalar natijasida yuzaga kelgan. Qadimgi turklar moniy, brahma, suryoniy kabi yozuvlarni qo'shni xalqlar bilan bo'lgan diniy munosabatlar tufayli qabul qilgan. Uyg'ur xati esa o'zga bir madaniy, iqtisodiy munosabatlar tufayli shakllangan.

**So'g'd yozuvi** aslida so'g'dlar foydalangan. Keyinchalik undan turkiy xalqlar ham foydalangan. Bu yozuvdagi turkiy yodgorliklar kam saqlangan.

**Moniy yozuvi** melodiy 247 yili Bobilda Moniy boshchiligida yangi dinga asos solinadi va shu davrdan boshlab Suriyaning Palmira shag'rida qo'llanilgan moniy yozuvi ham amalga kiritilgan. Ushbu yozuv moniy dini bilan birga Markaziy Osiyoga kirib kelgan. Yettinchi asrga kelib, moniy dini uyg'ur xoqonligining rasmiy dini sifatida qabul qilingan. Moniychilar tavbanomasi "Xuastuanift"ning ayrim qo'lyozma nusxalari, ayrim she'riy parchalar bizgacha yetib kelgan.

**Braxma yozuvi** bo'g'inli yozuv bo'lib, qadimgi sanskritcha asosida shakllangan. Turkiy xalqlarga buddizm ta'sirida kirib kelgan.

**Ko'kturk yozuvi.** Turkiy xalqlarning eng qadimgi yozuvi. Fanda noma'lum bo'lganligi uchun "run yozuvi" deb, keyinchalik "turkiy run yozuvi", "qadimgi turk yozuvi", "ko'kturk yozuvi" topilgan o'rniga qarab "urxun yozuvi", "enisey yozuvi", "urxun-enisey yozuvi" nomlari bilan ham yuritilgan. Ibn Arabshoh o'zining "Ajoibu-l-maqdur fi navoibi Taymur" (Temur falokatlarida qismatning qiziqliklari) deb atalgan kitobida ushbu yozuv va uning nomi haqida qisqa ma'lumot berib shunday fikrlarni bayon qilgan: "Xitoda ularning (turklarning) "dulbarchin" deb ataladigan yozuvi bor. Ko'rdim, harfi qirq bitta. Ko'pligining sababi, ular qalin va ingichka (tovush)larni, shuningdek ayirgichlarni (alohida) harf hisoblaydilar, natijada qo'shimchalar va har bir qo'shimcha harf tug'ilgan".

Ko'kturk yozuvi haqidagi dastlabki ma'lumotlar gollandiyalik olim Nikolas-Kornelisson Vitsening (1641-1717) asarida uchraydi. U gollandiyalik elchixonasi bilan 1664 yilda Moskvaga kelib bir yil yashadi. Moskvada turkiy xalqlarga oid materiallar yig'ib, keyinchalik shu materiallar asosida «Shimoliy va Janubiy Tartariya» nomli asarini yaratdi. Ushbu asarda Rossiyada yashovchi ko'plab xalqlar tillari, jumladan, turkiy tillarga oid leksik materiallar berilgan. Verxoturdan (hozirgi Sverdlovsk viloyati) uncha uzoq bo'lmagan joyda noma'lum alifboda yozilgan bitiklar mavjudligi qayd qilingan. Mahalliy aholi bu yozuvlarni «bitigtosh» deb atagan

1675 yilning boshlarida Rossiyaning Xitoydagi elchisi bo'lib ishlagan Nikolay Govrilovich Spafariy qaydnomalarida ham Enasoy daryosi bo'ylaridagi toshlarga o'yib bitilgan noma'lum yozuvlar haqida ma'lumot uchraydi<sup>1</sup>.

Rus olimi Semen Ulyanovich Remezov 1696 yilda Sibir yerlarining xaritasini chizayotib, bir joyga «o'rxun tosh» deb belgi qo'yadi. Noma'lum yozuvda bitilgan bu tosh xaritada chegara vazifasini o'taydi. Ko'kturk yozuvlari haqidagi birmuncha to'liqroq ma'lumotni asirlikka tushgan shved ofitseri Filipp Iogann Tabbert-Stralenberg (1676-1747) beradi. U 1711 yilda asirlikka tushganidan keyin Sibirning administrativ va iqtisodiy markazi bo'lgan Tobolskga yuboriladi. Filipp Iogann Tabbert-Stralenberg u yerda 12 yil yashab, Sibirda yashovchi xalqlar haqidagi juda ko'plab materiallar yig'adi. Shvetsiyaga qaytganidan keyin «Novoe geograficheskoe opisaniye Velikoy

---

<sup>1</sup> Кляшторный С.Г. История Центральной Азии и памятники рунического письма. Санкт-Петербург. 2003, 14.

Tatarii» va «Severnaya i Vostochnaya chast Yevropo`» asarlarini chop ettiradi. Keyingi asarining ilova qismida dulbarchin yozuvidagi bir necha toshlarning chizmasini beradi. Bu asar 1738 yilda ingliz tilida Londonda, 1787 yilda frantsuz tilida Amsterdamba, 1780 yilda ispan tilida chop etilgan, keyinchalik rus tiliga ham tarjima qilingan.

Pyotr 1 ning buyrug'i bilan 1720-1727 yillarda Sibir, Mo'g'ulistonida ilmiy safarda bo'lgan Danil Gotlib Messersmidt (1685-1735) kundaliklarida ham dulbarchin yozuvlari haqidagi ma'lumot uchraydi.

Ekatrina II ning ko'rsatmasiga ko'ra, Sibir general-gubernatori Yakobi Enasoydagi beshta dulbarchin yozuvidan ko'chirma oladi. Pallas 1793 yilda bulardan bittasini chop ettiradi.

G.I.Spaskiyning (1783-1864) faoliyati dulbarchin yozuvlarini o'rganishda yangi davrni boshlab berdi. U «Sibirskiy vestnik» jurnalining 1818 yilgi sonlarida (I, II, III, IV, VIII) «Drevnosti Sibiri» nomli maqolasini chop ettirib, unda o'sha davrgacha aniqlangan dulbarchin yozuvidagi yodgorliklar jadvalini berdi. Bu maqolani akademik I.F.Krug lotin tiliga tarjima qilib, 1822 yilda alohida kitocha holida chop ettirdi.

Shundan keyin jahon tilshunoslarining dulbarchin yozuviga bo'lgan qiziqishlari ortdi. Taniqli frantsuz tilshunoslaridan Abel Remyuzening 1822 yilda, G.Yu. Klaprotning 1823 yilda dulbarchin yozuviga bag'ishlangan maqolalari chop etildi.

Shundan keyin Enasoy daryosi bo'ylaridan topilgan bu yozuvlar haqidagi munozara boshlandi. Yozuvlarning shakliga qarab ba'zan slavyan xalqlariga, ba'zan greklarga aloqadorligi haqidagi fikrlar aytiladi. Bu qarashlar ichida slavyan nazariyasi tarafdorlari ko'pchilikni tashkil qalardi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan Sibirda qadimgi yodgorliklarni izlab topish ishlari yana jonlandi. Enasoy, Abakan, Bo'luq daryolari atroflaridan, Oltinko'l yaqinidan toshga o'yib yozilgan yangi-yangi matnlar topildi. Bu yozuvlarning turkiy xalqlarga aloqador ekanligi haqidagi birinchi fikrni N.Yadrintsev (1842-1894) bildirdi. U 1889 yilda Mo'g'ulistonning Kosho Saydam vodiysidagi Ko'kshin urxun daryosi qirg'og'idan ikkita katta yodgorlik topdi. Bularning biri Bilgaxoqon, ikkinchisi, uning ukasi Kultigin sharafiga o'rnatilgan bitigtoshlar edi. Har ikki yodgorlikdagi harflar shakl jihatdan Enasoy daryosi atroflaridan topilgan yodgorliklar yozuviga o'xshash edi.

Yadrintsev topilmasidan keyin Mo'g'ulistonga ikkita katta ekspeditsiyasi, 1890 yilda Aksel Olay Xeykel rahbarligidagi fin va 1891 yilda V.V.Radlov boshchiligidagi Rossiya Fanlar akademiyasining ekspeditsiyasi uyushtirildi. Mazkur ekspeditsiyalar faoliyatining natijalari sifatida ikkita atlas chop etildi. Ushbu nashrlar fanda qaysi xalqlarga tegishli ekanligi noma'lum bo'lgan dulbarchin yozuvlarini o'qish imkonini yaratdi.

Ancha munozaralarga sabab bo'lgan sirli yozuvni birinchi marta daniyalik olim V.Tomsen o'qidi. Shundan keyin ushbu yozuv yodgorliklari turkiy xalqlarga mansubligi aniqlandi. Olim 1893 yil 15 dekabrda Daniya qirolligi Fanlar akademiyasida runik yozuvlarini o'qiganligi haqida ma'ruza qildi.

**Dulbarchin yozuvining** urxun varianti 40 ta, enasoy varianti 41 ta harfdan iborat. Unli tovushlarni ifoda qilish uchun urxun variantida 4 ta, enasoy variantida 5 ta harf ishlatilgan. Ayrim harflar bir tovushni ifodalash uchun xizmat qilsa, ba'zi harflar bir necha tovushni ifodalaydi. Yumshoq undosh tovush uchun alohida, qattiq undosh tovush uchun alohida harflar qo'llanadi. Qattiq va yumshoq variantiga ega bo'lmagan tovushlar uchun, asosan bitta harf shakli ishlatiladi. Unli tovushlarni ifodalaydigan harflar so'z boshi va o'rtasida ko'pincha yozilmagan.

So'zlar o'ngdan chapga qarab, bir-biridan ikki nuqta bilan ajratib yozilgan.

Ko'kturk yozuvi yodgorliklari topilgan hududlar. Ko'kturk yozuvi yodgorliklarining topilish geografiyasiga qarab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

**1. O'rxun yodnomalari.** Bularga Shimoliy Mo'g'ulistondan topilgan Bilga xoqon. Kultigin, To'nyuquq, Ungin, Kulichur, Selenga, Qoraballasog'un, Suji yodnomalari hamda Xayto Tamirdan topilgan o'nta, Ixa-Asxetedan topilgan ikkita, Xangay va Gobidan topilgan mayda yodnomalar kiradi.

**2. Enasoy yodnomalari.** Enasoy daryosi atroflaridan topilgan toshga, oltin va kumush idishlarga, tangalarga yozilgan yetmishdan ortiq yodnomalar kiradi.

3. Lena-Baykalbo'yi yodnomalari. Bular o'qilishi qiyin bo'lgan qirqa yaqin qisqa matnlardan iborat.

4. Oltoy yodnomalari. Bitta qoyaga bitilgan yodnoma va bir necha kumush idishlardagi yozuvlardan iborat.

5. Sharqiy Turkiston yodnomalari. Bularga Turfandan topilgan, Dunxuan va Mirandan topilgan qog'ozdagi yozuvlardir.

6. Markaziy Osiyo yodnomalari. Bularga Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent vioyatlaridan, Yettisuv, Talasdan topilgan tangalar, uy-ro'zg'or buyumlari, yog'ochlar, sopol idishlardagi yozuv yodgorliklari kiradi.

7. Sarikildan topilgan g'ishtdagi yozuv yodgorligi, Dunayga Nad-Sen Mikloshdan topilgan kumush idishdagi yozuv va metallarga bitilgan yodgorliklar kiradi.

Ko'kturk yozuvining kelib chiqishi. Ko'kturk yozuvining kelib chiqishi, shakllanishi xususida hozirgacha bir fikrga kelinmagan. Olimlar bu borada turli qarashlarni bildirishgan.

1. Xelsinki universiteti professori fin olimi Xeykel 1900-1901 yillarda dulbarchin yozuvi harflari run yozuvdan kelib chiqqan va turkiy xalqlarga skandinavialiklar orqali o'tgan, degan qarashni ilgari surgan.

2. O.Donner ko'kturk harflarining kelib chiqishi Kichik Osiyoning likya, finikiy, hitit va friji harflari bilan bog'liq, degan fikrni aytadi.

3. Fin-ugor jamiyati nashr qilgan asarning uchinchi jadvalida bu harflar mazkur yozuvlarga yaqinligi ko'rsatilgan. Turkiy qabilalar etnik tarkibini o'rgangan N.N.Aristov «agar hititlarning turonli bo'lganliklari e'tirof etilsa, hitit harflarining asosi turkiy qabila tamg'alariga borib taqaladi», deb yozgan.

4. V.Tomsen ko'kturk yozuvidagi ba'zi harflarning semit-pahlaviy alifbosidagi harflarga o'xshashligini bildirdi. Tomsenning bu fikrini V.Radlov ham qo'llab-quvvatladi.

5. N.D.Sokolov ko'kturk harflari kelib chiqishi jihatidan oromey yozuviga borib taqaladi, lekin u turkiylar tarafidan o'z tillari milliy xususiyatlariga moslashtirilgan, degan qarashni ilgari surdi.

6. Ba'zi olimlar ko'kturk yozuvi so'g'd, fors yozuvlaridan kelib chiqqan degan fikrni bildirdilar. Masalan, 1906 yilda ingliz olimi Arnold Steyn Xitoy devorining g'arb tomonidan ko'p hujjatlar topdi. Mazkur hujjatlarning ko'pchiligi xitoy yozuvida, bir qismi esa noma'lum harflar bilan bitilgan edi. 1911 yilda R.Goto va A.Kouli noma'lum yozuvidagi hujjatlarni o'rganib, oromey alifbosidan kelib chiqqan so'g'd yozuvida, bu yozuv esa qadimgi turkiy run yozuvlari uchun asos bo'lgan degan fikrni aytishdi.

7. Ye.D.Polivanov 1925 yilda turkiy yozuvlarning kelib chiqishi haqida yozgan maqolasida, ko'kturk yozuvining ildizlari turk tamg'alariga borib taqaladi. Shu bilan birga ularda so'g'd va pahlaviy yozuvlarining ta'siri bor, degan fikrni bildirdi.

8. Qozoq olimi A.Amanjolov dulbarchin alifbosi eramizgacha bo'lgan birinchi ming yillikda shakllanib bo'lgan edi. Uning shakllanishiga bevosita qadimgi grek, shimoliy va janubiy semit, finikiya yozuvlari asos bo'lgan, degan qarashni ilgari surgan.

9. Ahmet Jafar o'g'li qadimgi turkiy alifbo turkiylar tomonidan milliy zaminda turkiy tamg'alar asosida yaratilgan, deb hisoblaydi<sup>1</sup>.

10. O'zbekistondan ham bir qancha ko'kturk yozuvida bitilgan yodgorliklar topildi. Andijon viloyati Marhamat tumanida joylashgan Lo'mbitepadan ko'zadagi yozuv, Qashqadaryoning Shaxrisabz hamda Dehqonobod tumanining Chashmimiron qishlog'idan topilgan idishdagi yozuvlar, shuningdek Toshkent viloyatining Yuqori Zarafshonidan, Farg'ona viloyati hududlaridan topilgan yozuvlar turkiy yozuvlar taraqqiyotini o'rganganishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Q.Sodiqov, N.Raxmonovlar mazkur yozuvlar bilan boshqa hududlardan topilgan yozuvlarni o'zaro qiyoslab, qadimgi turkiy yozuvlar dastlab Markaziy Osiyoda shakllangan, degan xulosaga kelganlar.

**Uyg'ur yozuvi.** Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit turk" asarida uyg'ur alifbosini "turkcha yozuv" deb atagan va harflar soni 18 ta ekanligini qayd etib, ularni keltirgan. Mahmud Koshg'ariyning fikricha, "barcha hoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha, Qashqardan Chingacha – hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritilgan".

<sup>1</sup> Ahmet Caferoğlu. Türk dili tarihi. Istanbul.1984. 127-130.

Ibn Arabshoh o'zining "Ajoibu-l-maqdur fi navoibi Taymur" (Temur falokatlarida qismatning qiziqliklari) deb atalgan kitobida uyg'ur yozuvi haqida ma'lumot berib shunday fikrlarni bayon qilgan: "Chig'atoyliklarda esa "uyg'ur" deb ataluvchi va "mo'g'ul xati" deb shuhrat topgan yozuv bor. Soniga o'n to'rtta harfi bor.

...Ozligining va shu son bilan cheklanganligining sababi bo'g'iz harflarini bir xil shaklda yozadilar, talaffuzi ham shunday. Maxrajda (artikulyatsiyada) bir-biriga yaqin bo'lgan "b" va "f" kabi, "z", "s"(sod) kabi, "t", "d", "t" (itqi) kabi harflar ham shunday. Ular o'zlarining tilxat, maktub, farmon, xat, kitob, bitim, solnoma, she'r, qissa, hikoyat, hisob, xotira va devonga tegishli hamma ishlarini chingizona tuzuklarini shu yozuvda yozadilar. Bu yozuvni yaxshi bilgan ularning orasida xor bo'lmaydi, chunki bu ularda rizq ochqichidir". Ibn Arabshohning ma'lumotiga ko'ra uyg'ur harflarining nomi, o'zi bildirgan undosh tovushdan keyin "a" tovushini qo'shish bilan yasaladi.

Uyg'ur yozuvi mutaxassislarning fikricha, sug'd yozuvi asosida shakllangan. Dastlab sug'd yozuvi kabi konsanat yozuv bo'lgan. Uch xil, so'z boshidagi, o'rtasidagi va oxiridagi shaklga ega. Ulilarning jarangli-jarangsiz juftlarini ifodalashda bir harfdanfoydalanilgan. Yozuvdajarangli-jarangsiztovushlarnifarqlashuchunkeyinchalik qo'shimchabelgilar qo'llangan.

"Merojnoma", "Oltin yoruq", "Qutadug'u bilig" singari asarlar uyg'ur yozuvida bitilgan.

Arab alifbosi asosidagi turkiy yozuv. Arablar VII – VIII asrlarda juda ko'plab mamlakatlarni bosib olganlaridan keyin o'sha o'lkalardagi madaniy yodgorliklarni, xususan qadimgi qo'lyozmalarni yo'q qildilar. O'qish-yozishni biladigan ziyolilar qatag'on qilindi. Mahalliy til va dinlar o'rniga arab tili va islom dini joriy etila boshlandi, tillarning yozuvlari esa arab alifbosi bilan almashtirildi. Natijada arab tili va islom dinini qabul qilgan hududlar chegarasi kengaydi, arab alifbosi asosida yozadigan xalqlar soni ko'paydi.

Arab tilidan ham ko'ra arab alifbosining qo'llanishi tez sur'atlar bilan kengayib bordi. Forslar, ulardan keyin usmonlilar imperiyasi tarkibiga kirgan xalqlar, Bolqon yarim orolidagi xalqlar, G'arbiy, Markaziy, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Afrikaning katta qismida yashaydigan aholi arab alifbosini qo'llay boshladi. Shunday qilib arab alifbosi hindevropo til oilalaridan – slavyan tillariga kiruvchi bosnya, ispan, fors, urdu, shuningdek, turkiy tillar, qadimgi yevrey, afrika tillaridan – berber, suaxil, sudan tillari uchun qo'llana boshladi. Natijada arab alifbosi lotin yozuvidan keyingi ko'p tarqalgan yozuvga aylandi.

Arab alifbosi kelib chiqishi jihatidan unchalik qadimgi tarixga ega emas. Alifbo tarixi bilan shug'ullangan mutaxassislarning fikriga ko'ra, u IV asrning oxirlari yoki V asrda nabotiy yozuvi asosida shakllangan. Nabotiy yozuvida esa undosh tovushlarni ifodalaydigan 22 ta harf bo'lgan. Dastlabki arab alifbosida ham 22 ta belgi bo'lib, u keyinchalik arab tilining tovush xususiyatlariga moslashtirilgan va alifboga 6 ta belgi kiritilgan. Shunday qilib, 28 ta belgiga ega arab alifbosi yaratilgan.

Arab alifbosida bitilgan eng qadimgi yozuv namunasi 512 yilda bitilgan uch tilda – grek-suriya-arab tillaridagi yozuv yodgorligi 1879 yilda Xalabga yaqin joydan topilgan.

Arab alifbosining yaratilgan joyi haqida ham olimlar o'rtasida turli qarashlar mavjud. Ba'zi olimlar uni Messopatamiyada yaratilgan deb hisoblasalar, ayrimlar Hijozda degan qarashni ilgari suradi. Yana bir guruh olimlar esa arab alifbosining nasx xati Hijozda, kufa xati Messopatamiyada bir vaqtning o'zida nabotiy yozuvi asosida shakllantirilgan degan fikrni bildirishgan.

Arab alifbosida turkiy xalqlarning ko'plab asarlari, xususan "Devonu lug'atit turk", "Qutadug'u bilig", "Hibbatul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning hikmatlari kabi asarlar, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa mualliflarning asarlari yaratilgan.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida qayd etilishicha, arab alifbosi turkiy tilning tovush xususiyatlariga imkon darajasida moslashtirilgan. Biroq arab alifbosi turkiy tillarning tovush xususiyatlarini to'la ifodalay olmas edi. Masalan, arab alifbosidagi harflar ifodalagan tovushlar turkiy tillarda yo'q edi. Turkiy tillardagi unli tovushlar faqat uchta-harflari bilan ifodalangan. Shunday kamchiliklar bilan birga, turkiy tillargagina mos tovush xususiyatlarini ifodalaydigan harflar alifboda mavjud emas edi. Shu bois uni tarixda bir necha marta isloh qilishga, ba'zan esa uni tubdan o'zgartirishga harakatlar bo'lgan. Bobur esa boburiy xat deb nomlangan alifbo tuzib chiqqan.

Yigirmanchi asrning boshlarida arab alifbosini isloh qilish masalasi Tatariston, Ozarbayjon, Turkiya va boshqa o'lkalarda qizg'in muhokama qilingan.



1921 yilda Fitrat tuzgan “Chig’atoy gurungi” a’zolari tomonidan Toshkentda chaqirilgan til- imlo qurultoyida arab alifbosi isloh qilingan. 1922 yil Toshkentda, 1923 yil Buxoroda o’tkazilgan qurultoylarda ham arab alifbosini isloh qilish masalasi ko’rib chiqilgan va nashr ishlarida, ta’lim jarayonida isloh qilingan alifbodan foydalanish boshlangan. Arab alifbosi yigirmanchi asrning o’ttizinchi yillariga qadar deyarli barcha turkiy tillar uchun rasmiy yozuv sifatida qo’llangan.

**Lotin yozuvi.** Lotin yozuvining etrusk yozuvidan kelib chiqqanligi (eramizdan 700 yilda oldin), keyinchalik grek yozuvi asosida takomillashtirilgani mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan. (Etrusk yozuvidagi 9000 mingdan ortiq yodgorlik topilgan. Ular eramizdan oldingi VI-I asrlarga oid) Lotin yozuvi dastlab o’ngdan chapga, keyinchalik esa chapdan o’ngga qarab yozilgan.

Lotin yozuv dastlabki vaqtda juda kichik hududda, qadimgi Rimda qo’llangan, keyinchalik Rim bilan aloqada bo’lgan hududlarga ham keng tarqalgan. Ushbu yozuvda bitilgan adabiyotlar xristianlikni targ’ib qilish maqsadida Irlandiyaga olib borilgan va shu asosda irlandlarning milliy yozuvi shakllantirilgan. Irland yozuvi asosida Britaniyada ingliz alifbosi yaratilgan. Taxminan VIII asrlarda lotin yozuvidagi ispan alifbosi tuzib chiqilgan.

1500 yillar atrofida Italiyada kitob chop etish yo’lga qo’yilgandan keyin lotin alifbosining shakli ancha takomillashtirildi. Alifboning takomillashgan ko’rinishi Italiyadan Frantsiyaga, Frantsiyadan Buyuk Britaniyaga, XVIII arda esa Germaniyaga o’tdi. XIX asrga kelib lotin alifbosidagi bir harf bir tovushni ifodalashga moslashtirildi<sup>2</sup>.

Yigirmanchi asrning boshlarida turkiy xalqlarning ziyolilari, mutaxassislari qizg’in bahs- munozaralardan keyin lotin alifbosini o’z tillari tovush xususiyatlariga moslab olish yo’lini tanlashdi. 1926 yilda Bokuda o’tkazilgan turkiyshunoslarning qurultoyida turkiy xalqlarning yozuv muammolari ham muhokama qilinib, lotin alifbosiga o’tish to’g’risidagi qaror qabul qilindi. Shu sababli turkiy xalqlar yigirmanchi asrning o’ttizinchi yillaridan lotinyozuviga o’tishdi. Sobiq ittifoq hududidagi turkiy xalqlar 1940 yillargacha lotin yozuvidan foydalanishdi.

O’zbekiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Qozog’iston respublikalari mustaqil bo’lgandan keyin o’zbek, ozarbayjon, turkman, qozoq tillari uchun yana lotin alifbosi joriy etildi.

Ushbu yozuvning kelib chiqishi haqida ko’plab tadqiqotlar yaratilgan<sup>3</sup>.

**Kirill yozuvi.** Tarixdan ma’lumki, Sibir, Kavkaz, Volga bo’ylari va Markaziy Osiyoni Rossiya bosib olib, ushbu hududlarda yashayotgan xalqlarni, jumladan turkiy xalqlarni ham chorizm o’z hukmronligi ostiga olgan. Ushbu hududlardagi xalqlarni to’la o’ziga bo’ysundirmoqchi bo’lgan chorizm ma’murlari bir necha marta ularni arab alifbosidan rus yozuviga o’tkazishga harakat qilgan. 1909 yilda esa Rossiya tarkibiga kiruvchi xalqlarni rus yozuviga o’tkazish to’g’risida podshoning maxsus farmoni chiqqan.

Yigirmanchi asrning boshlarida hukumat bolsheviklar qo’liga o’tgandan keyin bunday harakat yanada kuchaydi. Zimdan turkiy xalqlar alifbolarining kamchiliklari to’g’risidagi masala kun tartibiga qo’yildi, tildagi tovushlarni ifodalashda rus yozuvining katta imkoniyatlari xususidagi maqolalar chop etildi. Biroq u davrdagi vaziyat to’g’ridan to’g’ri rus alifbosiga o’tishni ko’tarmasdi.

1930 yillarning oxirlaridan sobiq ittifoq tarkibidagi barcha turkiy xalqlar majburiy ravishda rus yozuviga o’tkazildi. Ushbu alifboni joriy etishda turkiy tillarning o’ziga xos tovush xususiyatlari, tarixi hisobga olinmasdan, milliy tillarni yo’qotish asosida kelajakda yagona til yaratish tamoyili asos qilib olindi. Turkiy xalqlar ushbu yozuvdan sobiq SSSR parchalangunga qadar foydalanishdi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Dulbarchin yozuvining o’qilishi bilan qaysi olimlar shug’ullanishgan?
2. Qaysi yozuvlar turkiy tillar tovush xususiyatlarini yaxshi ifodalagan?
3. Mahmud Koshg’ariy yozuv haqida qanday fikrlar bildirgan?
4. Turkiy tillar tovush xususiyatlarini ifodalash uchun qaysi yozuvlarga o’zgartirishlar kiritilgan?
5. Arab alifbosi asosidagi turkiy yozuvlarni kimlar, nima maqsadda isloh qilmoqchi bo’lgan?
6. Lotin yozuviga o’tish jarayonida qanday fikrlar o’rtaga tashlangan?
7. Rus alifbosiga asoslangan turkiy xalqlarning yozuvlari qaysi jihatlari bilan xarakterlanadi?

<sup>2</sup>Иоганнес Фридрих. История письма. Перевод с немецкого. Москва, 1979, 137-140.

<sup>3</sup>Х.Дегеринг. Н.Дегеринг, Doe Schrift, Tübingen, 1952.

## 6- mavzu: Turkiy tillarning o'rganish tarixi

### Reja:

1. Mahmud Koshg'ariy va uning "Devonu lug'otit turk" asari.
2. Mahmud Zamaxshariy va uning filologik asarlari.
3. XIII-XVII asarlarda yaratilgan filologik asarlar. Ularning turkologiya tarixidagi o'rni.

**Tayanch so'z va iboralar:** *Abu Hayyon, Jamoliddin ibn Muxanna, Jamoliddin At-Turkiy, «At-tuhfa», Mahmud Koshgariy, «Devonu lugotit turk», Mahmud Zamaxshariy, Jorulloh, «Muqaddimat ul-adab», arab titshunosligi, tematik lugat, qomusiy lugat.*

XII-XIV asrlar davomida arab tilida turkiy tillarning leksik, fonetik va grammatik xususiyatlariga bag'ishlangan bir qancha asarlar vujudga keldi. Ularning ko'pchiligi til to'rganish maqsadida, ba'zilari esa qiyosiy xarakterda yozilgan. M: Abu Hayyon asarlari bunga misol bo'la oladi.

Ispaniyaning Andaluziya viloyatidagi Grenada shahrida tugilib, Misrda yashagan, aslida Afrikaning berber qabilasiga mansub bo'lgan Asiruddin Abu Hayyon al-Andalusiy (1256-1345) 60 ga yaqin asar yozgan bo'lib, 15 tasi bizgacha etib kelgan. U turkiy xalqlarning tarixi va tiliga bag'ishlangan 4 asar yozgan. Bular: 1) «Turk tilidan ish kitobi», 2) «Turk sintaksisi sohasidan yorqin kitob», 3) «Turk tili tarixi», 4) «Kitob al-idrok li-lison at-atrok» («Turk tilini tushunish kitobi»). Bulardan bizga «Kitob al-idrok» nomli asari ma'lum.

Abu Hayyonning turkiy tiliga bo'lgan qiziqishi Misrda yashab turgan davridayoq paydo bdlgan edi. Bu qiziqish natijasida u arablarning turkiy tilini yaxshi tushunishlarini osonlashtirish maqsadida turkiy til va uning dialektlariga hamda turkiy til bilan arab tilining o'zaro qiyosiga bag'ishlangan «Kitob al-idrok...» lug'atidir. Asar 1312 yilda Qohirada yozilgan bo'lib, qo'l yozma nusxasi 132 betdan iborat. Bu asarning 2 qo'lyozmasi mavjud. Ular Istanbulda saqlanadi. Mazkur qtflyozmalar asosida 1891 yilda Mustafao Bey, 1931 yilda Ahmad Ja'far o'g'li asarni nashr ettiradi. Keyingi davrlarda A.Zayonchkovskiy, K.Brokkelman, L.Bouvat, E.Fozilov, A.Kurishjonov, N.Rasulova singari olimlar bu asar yuzasidan maxsus tadqiqot ishlari olib bordilar.

N.A.Baskakovning ta'kidlashicha, asar qipchoq tilini o'rganuvchilar uchun mo'ljallab yozilgan amaliy qtfllanmadir. Asarda turkiy tillar leksikasi va grammatikasiga doir qiyosiy ma'lumotlar ham bor.

Asar 2 qismdan iborat. 1) lug'at; 2) grammatika.

Lug'atda so'zlar alfaviti printsipli asosida joylashtirilgan. So'zning lugatdagi o'rni so'z boshidagi 2 harf (tovush) asosida belgilangan.

Muqaddima qismida ma'lum bo'lishicha, Abu Hayyon tilning struktura elementlarini o'sha davridayoq lugat tarkibi, morfoloeiya va sintaksisdan iborat deb hisoblaydi. Chunki u til o'rganish uchun uch narsani: 1) ayrim olingan so'zlarning ma'nolarini; 2) so'zlarning turlanish va tuslanish qoidalarini, 3) so'z birikmalarini bilishni tavsiya qiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tdikki, asarning lug'at qismida turkiy so'zlar arab alfaviti tartibida berilgan. Unda 2760 so'z mavjud, Tadqiqotchilarni ko'rsatishicha, asarning lug'at qismida 5 ta arabcha so'z va 13 ta forscha so'z uchraydi.

Izohlangan so'zlarning ko'pchiligi qipchoq tiliga doir, biroq lug'atda turkman tiliga oid so'zlar ham mavjud. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zi tadqiqotchilar Abu Hayyonning bu asari qipchoq-turkman tiliga bag'ishlangan asar degan fikrlarni ham bildirishgan.

- 1) k, g tovushining y tovushiga o'tishi holati: dagma-tayma, atni mindum ayarlab;
- 2) g tovushining undoshlar oldidan tushishi: igna-ina.
- 3) g va y tovushlarining o'rin almashinib kelishi; bugdoy-buyday;
- 4) g` va v tovushlarining o'rin almashinib kelishi; o'g`ul-o`vul, ag`uz-avuz;
- 5) so'z boshida y undoshining orttirilishi; ilon-yilon, yip-ip;
- 6) x tovushining q ga o'tishi; xo`ja-qo`ja;

Turkman tiliga oid fonetik xususiyatlar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi.

- 1) m tovushining b tovushiga otishi: man-ban;
- 2) t tovushining d ga o'tishi: tilku-dilku (tulki)

Morfologiya qismida so'zlar odatga kdra 3 turkumga ajratilgan: ot, fe'l, harf (yordamchi so'zlar va qo'shimchalar). Bu qismda turkiy tillarning so'z yasash, so'z o'zgartish va shakl yasash tizimi aks ettiriladi.

Sifatlarning orttirma darajasi «yavlak» so'zi orqali hosil qilinadi: yavlak ko'rkludur-juda chiroylidir. «Yarim» ma'nosini bildiruvchi son manbada «yaru» so'zlari bilan ifodalanadi.

Umuman, Abu Hayyoning «Kitob al-idrok» asari turkiy tillar tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Jamoliddin ibn Muxanna XIII asrning oxiri XIV asrning boshida yashagan. Olimning ilmiy merosi P.M.Melioranskiy, S.Ye.Malov kabi turkolog olimlar tomonidan o'rganilgan.

Ibn Muxanna turkiy tillarga bag'ishlah «Xiliat-ul-inson va xalibat-ul-lison» nomli asarini yozgan. Olimlar bu asarda keltirilgan materiallar o'g'uz tillariga, xususan eski ozarbayjon tiliga mansub deb ko'rsatishadi. Ibn Muxanna kitobda o'g'uz tillar xususiyatlarini boshqa turkiy tillarga qiyoslab izohladi, ularni fonetik, leksik va grammatik farqlarini ko'rsatadi.

Jamoliddin Muhammad Ahdulloh Turkiy o'z davrining yirik olimlaridan biri sanaladi. Uning qayerda yashagani va qanday asarlar yozgani haqida aniq ma'lumot yo'q. Ammo N.K.Baskakovning yozishicha, uning birgina «Kitobu bulg'ot al mushtoq fi-l-lug'ati at-turk va-l-qifchoq» («Turk va qipchoq tillariga mushtoqlarni qoniqtiruvchi kitob») lug'atigina bizgacha etib kelgan. Bu nodir asar birgina nusxaga ega bo'lib, hozirda Parij Milliy kutubxonasining Sharq qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

Asar 4 bobdan iborat bo'lib, ularning har qaysisi mavzuviy gurithlarga-fasllarga ajratilgan. Asarning birinchi bobi tangrining ismi va fazoda unga tobe bo'lgan mavjiddotlarga hamda diniy terminlarga bag'ishlangan. M: tangri, yalavach, farishta, quyosh, yog'mur, ko'kramak, ay tutulmak kabilar.

Asarning ikkinchi bobi er, uning osti va uslidagi narsalar izohiga bag'ishlangan bo'lib, ularga oid so'zlar bir qancha guruhlariga bo'lingan:

M: foydali qazilmalarga oid so'zlar: altun, kumush, baqo'r (mis), kamur, qurshun (qo'rg'oshin), tamur;

- harbiy sohaga oid so'zlar: kozari (josus), chari (qo'shin), chalo'sh (olishuv, kurash), sano'sh (sanchilmoq), qonush (bosqinchilik);
- o'simliklar nomlari: bugdoy, arpa, kunji, noxut, ekin;
- hayvonlar nomi: davar (poda), dava(tuya), okuz, bug'a, qoyan, buzag'u, oglak (uloq, echkicha);
- oziq-ovqat nomlari: ai (go'sht), ash, bal (asal), chaqar (shakar), yag;
- qarindoshlikka oid so'zlar: ana, ata, o'g'lan, o'g'ul, qiz;
- hashorat nomlari: sinak (pashsha), chibin;
- qush nomlari: sercha (chumchuq), chtipchak (chumchuq), kaklik, chil kabi so'zlar guruhiga bo'lgan.

Asarning uchinchi bobida payt va o'rin ravishlari, kelishik, ko'rsatish va so'roq olmoshlari, ko'makchilar haqida, hafta kunlari va yil fasllari nomlari to'g'risida ma'lumot beriladi.

Turkiy tillar lug'ati va grammatikasiga bag'ishlangan asarlar qatoriga muattif noaniq bo'lgan «Kitob at-tuhfatuz zakiyatu fi-l-lug'at-it-turkiya» («Turkiy til haqida noyob tuhfa») asar ham kiradi.

Kitob kirish qismida muallif shunday yozadi: «Mendan (bu ishni) so'rganlarga ho'p deb va'da qildim. Tangridan muvaffaqiyat va yordam so'radim» («At-tuhfa» 8-bet) deyilishi ya'ni muallifdan mazkur asarni yozishni kimlardir so'rganiga ishora qilinishi uning etuk olim bo'lganidan dalolat beradi. Asar muallifi M.Koshgariy izidan borib, turkiy qabila tillarini, ularning o'zaro farqi va o'xshash jihatlarini aniqlashga harakat qilgan.

«At-tuhfa» asarida qipchoq tili materiallari tahlil qilingan. «Men bu asarda,-deb yozadi muallif,-qipchoq tili (xususiyatlari)ga asoslandim. Chunki eng ko'p qo'llangan til qipchoq tilidir».

Bu nodir yodgorlik 1922 yilida turk olimi Fuat Kupruluzoda tomonidan fan olamiga ma'lum qilindi. Shundan keyin polyak olimi A.Zayonchkovski, venger olimi 1942 yilda T.Xalal-Kun bu nodir yodgorlik faksimilesini nashr etdi. 1945 yilda Boaim Atalay «At-tuhfa»ning turk tiliga tarjimasini nashr etib, unga asarning to'liq lug'ati va fotokopiyasini ilova qildi.

1968 yilda S.Mutallibov mazkur asarni o'zbek tilida nashr ettirdi. 1978 yilda E.Fozilov va M.Ziyeaevlar «At-tuhfa»ni kirish, leksik-grammatik ocherk, tarjima, so'zlik, grammatik ko'rsatkichlari bilan rus tilida nashr etdilar. Kirish qismida asarning o'rganilish tarixi haqida to'liq ma'lumot beriladi.

Asar 182 betdan iborat, arab tilida yozilgan. Asarda qipchoq till materiallari uch qismda izohlanadi: kirish, lugat, grammatika. «At-tuhfa»ning lug'at qismi 29 bobni tashkil etadi.

Kirish qismida tafakkur va tilning inson jamiyatidagi rolini ko'rsatib, muallif «inson hayvondan faqat tushunish va so'z (so'zlash) bilan farq qiladi» deydi.

Lugat qismida 3 mingta turkiy so'z berilgan bo'lib, ularning ma'nolari arab tiliga tarjima qilingan.

Qipchoq till morfologiyasi va sintaksisi 64 bobdan iborat grammatika qismida tavsiflanadi. Undo muallif turkiy tildagi barcha grammatik kategoriya va shakllarni klassik arab tilshunosligi terminlari vositasida izohlaydi.

Xullas, kitobning grammatika qismi qipchoq tili strukturasi to'grisida tugal tasavvur hosil qiladi.

**Mahmud Koshgariy va uning «Devonu lugotit turk» asari.** Mahmud ibn ul Xusayn ibn Muhammad al-Koshg'ariy turkiy xalqlar orasida etishib chiqqan birinchi qomusiy turkolog olim, uning tugilgan va vafot etgan yili noma'lum, tarjimai holiga oid bevosita tarixiy manbalar yo'q. Hozirga qadar tadqiqotchilar uning hayoti xususida «Devonu lugotit-turk» asari asosida va qoraxoniylar davri tarixiga oid boshqa manbalarga tayanib quyidagi taxminlarni bayon qilgan. Mahmud Koshgariy 1029-1038 yillar orasida Qoshg'arda tug'ilgan. Mahmud Koshgariy Buxoro, Nishopur, Samarqand, Marv, Bog'dod kabi shaharlarda tahsil ko'radi, arab tilini, arab filologiyasi sirlarini puxta o'rganadi. Lekin u umrini turkiy xalqlar va ularning tilini tadqiq etishga bag'ishlaydi.

Mahmud Koshgariy ko'p yillar davomida to'plagan bu materiallar asosida «Devonu lugotit-turk» («Turkiy so'zlar devoni») nomli uch jildlik asar yozadi. Bundan tashqari, uning yana bir asar yozgani ma'lum. Mahmud Koshg'ariyning «Kitobi javohir an-nahv Ji-t-lug'at at-turk» («Turkiy tillarning nahv (sintaksis) javohirlari») nomli ikkinchi asarida turkiy tillar sintaksisi ustida bahs yuritiladi. Biroq bu asar bizgacha etib kelmagan.

M.Koshg'ariyning «Devonu lugotit turk» asari ikki qismdan iborat: 1) k i r i sh; 2) l u g' a t. Kirish qismida turkiy tillarning mavqei, lug'atning oldiga qoyitgan vazifalar, asarning mundariyasi, turkiy tillarda so'z tuzilishi va yasalishi, turkiy qabilalar va ular tillarining o'ziga xos xususiyatlari, tilda va lahjalarda bo'lgan so'zlar haqida fikr yuritiladi.

Asarning lug'at qismi sakkiz bo'limdan iborat:

- 1) hamzali so'zlar (boshida alif, vov, yoy harflari keladigan stfzlar) bo'limi;
- 2) solim (tarkibida alif, vov, yoy harflari kelmaydigan so'zlar) btflim;
- 3) muzoaf (tarkibida bir harfi ikki marta keladigan-takrorlangan so'zlar) bo'limi;
- 4) misol (boshila, o'rtasida yoki oxirida alif, vov, yoy harflaridan biri kelgan so'zlar) bo'limi;
- 5) uch harfli so'zlar bo'limi;
- 6) to'rt harfli so'zlar bo'lim;
- 7) g'unnalar (tarkibida bturun tovushlari keladigan so'zlar) bo'limi;
- 8) tarkibida ikki undosh qator kelgan so'zlar bo'limi.

Lug'atning shu tartibda tuzilishi arab leksikograjyasi an'analariga mos edi. Muallif lug'at tuzishda mashhur arab tilshunosi Halil ibn-Ahmadning «Kitob-ul-ayn» lug'atiga asoslanganini alohida ta'kidlaydi.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy metoddan foydalanib, tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri bo'ldi. U turkiy tillarning leksikasini, morfologiyasini va fonetikasini bir-biriga qiyoslab, ular orasidagi o'xshash va farqli tomonlarni ko'rsatdi. Bu faktlarni izohlashda tarixiy aspektga yondoshadi.

Lug'atda turkiy tillar leksikasiga mansub 7500 so'z izohlangan. O'sha davrdagi taomilga ko'ra, turkiy so'zlarga arabcha izoh beriladi. Shuning uchun ham M.Koshg'ariy «Tushunilishi oson bo'lsin uchun asarda arabcha istiloh (termin)lar qo'lladim», -deydi.

Mahmud Koshg'ariy til faktlari asosida qabilalarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatadi va o'sha davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlar asosida qabilalarning bir-birlari bilan birika boshlashi natijasida yuzaga kelgan xalq tilimng ilk davri materiallaridan numunalar keltiradi.U

o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, uyg'urlar, tatarlar va boshqa xalqlarning qadimgi qabilalarni hamda ularning qadimgi sodda tillaridagi so'zlarning qaysi xalq va qabila tiliga oid ekanligini izohladi. Shu nuqtai nazardan lug'atdagi so'zlarni bir necha guruhga ajratish mumkin.

Hamma turkiy tillarda qo'llanadigan so'zlar: ish, esh, yol, bosh, boy kabilar. Bu so'zlar fonetik variantlari bilan farqlansa-da, bir xil shakl vama'noda ishlatiladi.

Bir xil shakl va ma'noda bir necha turkiy tillarda qo'llaniladigan so'zlar: bol (suvar va qipchoq tilida asl ma'nosida), suzgaq (arg'u va qipchoq tilida cho'mich ma'nosida) kabilar.

Muayyan xalq, qabila tiliga oid so'zlar: gejak-kokil (arg'u tilida), o'tunch-qarz (o'guz tilida), qaraqlamoq-tfg'irlamoq, taiamoq (yag'mo tilida), tunak-qamoqxona, zindon (barsag'on tilida), sugut-suzma (qarluq tilida) kabilar.

Bu haqda Mahmud Koshg'ariy shunday yozadi: «Men turklar, turkmanlar o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirgizlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini ttfpladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildirn. Vlarni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim».

Mahmud Koshg'ariy o'zlashma so'zlarga ikki xil munosabatda bo'ladi: 1) Kundalik turmushda qo'llanadigan turli xil narsalar borki, ular hayotga singib ketgan. Vlarni nomlovchi so'z tilda bo'lmasa, bunday so'zni qo'shni tildan olish mumkin. 2) Tilda mavjiid so'zlar o'rnida boshqa tit so'zini qfflash zararli deb hisoblaydi. BU fikrga asoslanganimizga *bilge*, *bitig*, *uragut* kabi turkiy so'zlar o'rnida arabcha olim, kitob, ayol kabi so'zlarni qabul qilmasligimiz kerak.

Mahmud Koshg'ariy o'zlashtirma so'zlarni ham e'tibordan chetda qoldirmadi. Masaian, qarit (o'g'irlash, talash) so'zini u turkman tiliga arab tilidan o'zlashgan deb taxmin qiladi. Shu bilan birga, Mahmud Koshg'ariy turkiy tillardan boshqa tillarga o'zlashgan so'zlarga ham to'xtalib o'tadi. «Paxtali to'n» ma'nosidagi yolma so'zi haqida it shunday deb yozadi: «Forslar buni turkiy xalqlardan olib yalma shaklida talaffuz qiladilar. Arablar forslardan olib yolmoq shaklida qo'llaydilar. Hech kirn bu so'zni turklar forslardan olgan deb da'vo qila olmaydi. Chunki men bu so'zni eng qirg'oq chegaralarda yashovchi oddiy turk xalqlaridan ham eshitganman. Bular boshqa xalqlardan ko'ra, bu xil yomgir elpig'ichiga muhtojroqdirlar. Chunki bularning yurtida qor, yomgir ko'pdir» (**DLT. III**, 41-42).

Mahmud Koshg'ariy so'zlarni uch turkumga ajratadi: ismlar, fe'llar va harflar. Yordamchi so'zlar va qo'shimchalarni u harf termini bilan ataydi.

Uning o'sha davr fonetikasiga bergan izohlari turkiy tillar fonetikasi uchun qimmatlidir. U «Devon»da fonetik qonunlarning tovush almashinuvi, tovush tushishi, tovush orttirilishi kabi ko'rinishlarini batafsil izohladi.

Mahmud Qoshgariy o'z asarida asarida tovushlar garmoniyasi masalasiga alohida e'tibor berdi va shu nuqtai nazardan so'zlarni ikki guruhga ajratadi: qattiq so'zlar va yumshoq so'zlar. Qattiq so'zlar til orqa tovushlaridan tarkib topsa, yumshoq so'zlar til oldi tovushlardan tarkib topgan. So'zga qo'shiladigan qo'shimchalar shu so'z tarkibidagi tovushlarga moslashadi: qattiq so'zga qtfshimchani qattiq varianti, yumshoq so'zga esa qo'shimaning yumshoq varianti qo'shiladi. Masaian, sifatdash qo'shimchasining -gan varianti qattiq so'zlar, -gan varianti esa yumshoq so'zlarga qo'shiladi: bargan, kelgan kabi.

Mahmud Koshg'ariy qattiq va yumshoq so'zlarni farqlashda ko'rsatkichlardan foydalanishga harakat qiladi. Masalan, tarkibida *q* yoki *g* tovushi kelgan so'zlarni u qattiq so'zlar guruhiga, tarkibida *k* yoki *g* tovushi kelgan so'zlarni esa yumshoq so'zlar guruhiga kiritadi.

Mahmud Koshg'ariy turkiy xalqlar madaniyati va fani tarixida alohida o'rin tutadi. U turkiy filologiya fanini yaratgan olimlardan biri va birinchisidir.

Mahmud Koshgariyning «Devonu lugotit'turk» asarii faqat tilshunoslik asari bo'lib qolmasdan, o'z davrini qomusidir. Chunki unda turli xalqlarning tarixi, jo'grofiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, urf-odatlar, tabiiy sharoiti, etnografiyasi, adabiyoti haqida qimmatli materiallar mavjud. M.Koshgariy tomonidan berilgan ma'lumotlar hozirgi tillarni ffrganishda va ularning qiyosiy-tarixiy grammatikasini yaratishda qimmatli manba bo'lib qoladi.

**Mahmud Zamaxshariy va uning «Muqaddimat ul-adab» asari.** Bizga ma'lumki, XV asrgacha arab tili din till, fan tiliga aylandi. Xalifalik hududida yashagan barcha din va fan ahli, qaysi xalqqa mansub bo'lishidan qat'iy nazar, o'z asarlarini arab tilida yozdilar. Shuning uchun ham dunyoga arab madaniyati, deb shuhrat qozongan madaniyatning shakllanish va ravnaq lopishida

arablardan tashqari, arab bo'lmagan xalq vakillarining ham xizmatlari beqiyos kattadir. Ana shunday olimlardan biri xorazmlik Abul-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamaxshariydir.

U hijriy 467 sana rajah oyining 27-sida, chorshanba ktni (melodiy 1075 yilning 19 martida) Xorazmning katta qishloqlaridan biri bo'lgan Zamaxsharda tug'ilgan va shu boisdan ham az-Zamaxshariy taxallusini olgan.

Az-Zamaxshariy haqidagi ma'lumotlar asosan o'rta asr arab manbalarida, qisman ma'lumotlar esa olimning o'z asarlarida keltirilgan. Az-Zamaxshariyning hayoti va faoliyatini yoritishda Ibn Xallikon («Vafoyyot al-a'yon»), ibn al-Anbariy («Nuzhat ul-alibbo fi tabaqat il-udabo»), Yoqut al-Hamaviy («Mu'jam al-udabo»), ibn al-Qiftiy («Inbah ar-Ruvot») va boshqa arab mualliflarining asarlari asosiy manba rolini o'taydi. Az-Zamaxshariyning otasi unchalik badavlat emasdi, lekin o'z davrining savodti, ancha taqvodor, diyonatli kishisi bo'lgan. Zamaxshar qishlogidagi masjidning birida imomlik ham qilgan. U xulq-atvori yaxshi, muruvvatli kishi bo'lib, bu fazt bilan el orasida obro'-e'tibor topgan. Az-Zamaxshariyning onasi ham juda taqvodor ayollardan bo'lgan. Olimning yoshlik yillari diniy, taqvodorlik muhitida shakllangan. Zamaxshariy dastlabki bilimni o'z otasidan oladi. Uning shaxsiy hayotiga doir ma'lumotlardan shu narsa ma'lumki, uning bir oyogi bo'lmay, yogoch oyoqda yurgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, otasi uning bir kiyim tikuvchiga shogird qilib bermoqchi bo'ladi. Lekin Zamaxshariy ilmga havasmand bo'lgani uchun otasidan o'zini Xorazmga-madrasaga o'qishga yuborishni so'raydi. O'glidagi ilmga zo'r ishtiyoqni sezgan ota uning iltimosiga bajoni dil rozi bo'ladi. Madrasada Urn-fanning turli sohalar bilan qiziqib, o'qitiladigan ilmlarni to'liq egallaydi. Shuningdek, o'sha davrda Urn ahllari orasida muhim hisoblangan xattotlik san'ati siru asrorini ham mukammal o'zlashtiradi. U 12 yoshga to'lgach, o'z bilimni oshirish va har tomonlama zakovat egasi bo'lish maqsadida u Buxoroga keladi. Chunki Buxoro somoniylar davridan boshlab, Ilm-fan markaziga aylangan bo'lib, o'sha davrning ilg'or, fozil kishilari yigilgan edi. Zamaxshariy Buxorodagi o'qishini tamomlagach, bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo'ladi. Biroq qobiliyati, ilmu fazilatlariga munosib e'tibor ko'rmagach, o'zga yurtlarga safar qiladi. Bu davrda Xorazmshohlar Saljuqiylar qo'l ostida edi, Xorazmda yaxshi obro'-e'tibor topmagan az-Zamaxshariy Saljuqiylar hukmdori Malikshoh huzuriga keladi. Malikshoh va uning vaziri Nizom ul-Mulk ilm-fan va madaniyat ravnaqi yo'lida katta ishlar qilgan edilar. Ular ilm-fan, ma'rifat homiysi sifatida olimlarga, shoirlar va adiblarga katta e'tibor beradi. Shunday qilib, az-Zamaxshariy ham Nizom ul-mulk xizmatiga kiradi va unga atab bir madhiya tarzida qasida yozadi. Biroq bu erda u o'zi orzu qilgan martabaga erisha olmaydi. Manbalarda bunga sabab qilib, Nizom ul-mulk sunniy mazhabiga mansubligi, az-Zamaxshariy esa mu'tazaliy oqimiga mansub bo'lgani uchun ham o'rtada kelishmovchiliklar bo'lgan deb ko'rsatadi.

Shundan keyin Xurosonga yo'l oladi. U yerda mashhur kotib Xusayn al-Ardistoniy bilan tanishadi. Bir qancha vaqt shu yerda yashlaydi, biroq bu yerda ham lining ahvoli Xorazmdagidan yaxshi boimaydi. V erdan Saljuqiylar davlatining poytaxti Isfahonga keladi.

1118 (hijriy 512) yilda bo'lg'usi olim og'ir bir kasalga uchrab, ancha qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. U darddan tuzalgach, mansab uchun hukmdorlar ostonasiga bosh urmaslikka ond ichadi va qolgan umrini faqat ilmga bag'ishlashga ahd qiladi. U Bog'dodga boradi, u erda, Bog'dod olimlaridan saboq oladi, munozaralar qiladi. Bir muddat Bog'dod shahrida turgandan so'ng yana safarni davom ettirib, Makkaga yo'l oladi. Makka shahrining amiri Hamza ibn Vaxxos uni iliq kutib oladi. Ibn Vaxxos bir qancha nazmiy va nasriy asarlar muallifi edi. U az-Zamaxshariy iste'dodiga yuksak baho berib, qadr-qimmatini munosib baholadi. Zamaxshariy Arabiston yarim orolining barcha mintaqalarini ziyorat qiladi.

U Makkada 2 yilcha yashaydi, o'z tuprogini qumsab, vataniga qaytadi. U qaytib kelganda Xorazmda Muhammad ibn Anushtagin hukmronlik qilardi. Anushtagin olimga marhamatlar ko'rsatdi. Uning vafotidan so'ng o'g'li Otsiz ham az-Zamaxshariy katta hurmat-e'tibor bilan qaradi. Buni olim «Muqaddimat ul-adab» asarida alohida ta'kidlaydi. Shunga qaramay yana u Makkaga boradi. Makkada amir bu safar ham iliq qarshi olib, unga katta izzat-ikromlar ko'rsatadi. Uni har doim qo'llab-quvvatlaydi. Ibn Vaxxosning yordamidan ilhomlanib o'zi Qur'on tafsiriga bag'ishlangan mashhur asari «Al-Kashshof» asarini yozadi. Bu safar olim Makkada uch yil yashaydi va yana vatani Xorazmga qaytadi. Hijriy 538(1143) yil Jurjoniya (Urganch)da vafot etadi.

Az-Zamaxshariy o'z davrining yirik tilshunosi, lug'atshunosi, shoiri, olimi sifatida mashhurdir. U diniy ilmlar majmuasi-hadis, to'sir, fiqh va qiroat ilmi boyicha ham katta shuhrat

qozongan. Az-Zamaxshariy dastlabki ustoz al-Isfahoniy bo'lib, undan Zamaxshariy lug'at va nahv sohasida mukammal bilim oladi, umuman, Zamaxshariyning ilmiy, ijodiy faoliyatida bir millatni boshqa millatdan ustun qo'yish bo'lmasa ham, lekin u arab tiliga, arablarning ilm-fandagi yutuqlariga yuqori baho beradi. U grammatikaga bag'ishlangan «Al-Mufassal» asarini odamlarning istagini hisobga olib, «arab kalimalarini bilish uchun» yaratgani, «Muqaddimat ul-adab» asarini esa g'ayri arablar arab tilini o'rganish uchun yozganini ta'kidlaydi. O'z hayotida o'chmas iz qoldirgan Makkada az-Zamaxshariy 5 yilcha yashadi. Shu boisdan ham u o'z ismiga Jorulloh («Oллоhning qo'shnisi») degan sharaflı laqab qo'shib aytilishiga muassar bo'ladi.

N.Ibrohimov olim haqida shunday yozadi; Xorazmdan yetishib chiqqan ulug' alloma Mahmud az-Zamaxshariy arab tilining grammatikasi haqida ko'p qimmatli asarlar yaratgan. Arablar aytadilarki; «Agar shu ko'sa, cho'loq bo'lmaganida arablar o'z tillarini bilmas edilar». Bugungi kunda ham bu asarlar Arabistonda hozirda ham o'z dolzarbliligini, qimmatini yo'qotmagan.

Arab tili grammatikasiga bag'ishlangan («Al-Mufassal...») («Flektsiya san'ati haqida mufassal kitob») bu asar qv.qacha qilib «Al-Mufassal» deb atalib, az-Zamaxshariy Makkada yashagan davrida—513-515 (1119 yil dekabr -1121 yil, mart) yillar ichida yozilgan. O'sha davrning o'zidayoq bu asar arablar orasida keng shuhrat qozonadi, arab tilini o'rganishda asosiy qo'llanmalardan biri sifatida taniladi. Hallo Suriya hukmdori Muzaj'fariddin Muso kimda-kim bu asarni yod olsa, unga 5 ming kumush tanga pul va sarupo sovg'a qilishni va'da qilgan. Bir qancha kishilar asarni yod olib qimmatli sovg'alarga ega boiganliklari haqida manbalarda ko'rsatilgan. Demak, anglash mumkinki, O'sha davrdayoq az-Zamaxshariyning bu asari arab tilining o'rganuvchilar uchun asosiy qo'llanma sanalgan. Az-Zamaxshariyning Xorazmshoh Alouddavla Abdulmuzaffar Otsizga bag'ishlab yozilgan «Muqaddimat ul-adab» («Adabiyotga kirish») asari alohida ahamiyatga ega. O'zFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining noyob qo'lyozmalar fondida 4 tilda (arab-fors, eski o'zbek tili va mo'g'ulcha) yozilgan 202 inventar raqamida «Muqaddimat ul-adab» qtflyozmasi saqlanadi. Asar besh qismdan iborat. 1) ismlar, 2) fe'llar, 3) boglovchilar, 4) ismlarning turlanishi, 5) fe'llarning tuslanishi.

Asar ko'p tilli lugatdir. Unda arab leksikasi va grammatikasi materiallari forscha, ba'zi nusxalarida xorazmcha, turkcha va mo'gulclui tarjiması bilan berilgan. Mahmud Zamaxshariy o'z davrida so'zlarning ast ma'nosinigina berib qolmasadan, ularning ko'chma ma'nolarining ham mufassal keltiradi. Lug'at tuzilishi haqida tushuncha hosil qilish uchun quyidagi misollarni keliiramiz:

Arabcha	Forscha	Turkiy	Ma'nosi
Ibil	Shuturon	Teveler	Tuyalar
Savr	Gov	Okuz	Ho'kiz
baqara	Modagov	Inek	Sigir

Mazkur lugat kitob o'sha davrda arab tilining iste'molda bo'lgan barcha so'zlarni, iboralarni qamrab oladi. Bu so'zlarning ma'nolari, etimologiyasi yetarli darajada keng sharhlanadi.

«Muqaddimat ul-adab» fors tilidan tashqari, chigatoy (o'zbek), mo'gul, turk tillariga o'sha davrning dzida tarjima qilingan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, arab tilidan boshqa tilga tarjima qilingan 2 tilli lugat Zamaxshariyga qadar yaratilmagan. Zamaxshariy Sharq lugatchiligi tarixida birinchi marta alifbo tartibida izohli lug'atlar tuzish bilan qanotlanmay, yana birinchi bo'lib ikki tilda lugat yaratdi,

«Muqaddimat ul-adab» asarining chigatoy va mo'g'ul tillaridagi tarjima matni 1938 yilda N.N.Poppe tomonidan alohida kitob holida nashr etilgan.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Turkiy tillarga doir qanday lugatlar mavjud?

2. Abu Hayyonning turkiy xalqlarning tarixi va tiliga bagishlangan asarlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Jamoliddin ibn Muxanna «Xiliat-ul-inson va xalibat ul-lison» asarida qanday masalalarga e'tibor qaratgan?
4. «Kitob at-tuhfa» asarida qanday masalalar yoritilgan?
5. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari qachon va qanday maqsadda yaratildi?
6. Asarning muqaddima qismida qanday masalalar yoritilgan?
7. «Devonu lug'otit turk» asarining lug'at qismi qaysi bo'limlarni o'z ichiga o'ldi?
8. Mahmud Koshg'ariyning lingvistik qarashlari nimadan iborat?
9. «Devonu lug'otit turk» asari qanday ilmiy, tana'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega?
10. Mahmud Zamaxshariy tilshunoslikka oid qanday asarlar yaratdi?
11. «Muqaddimat ul-adab» asarida qanday masalalar yoritilgan?
12. Arablar Mahmud Zamaxshariyning arab tili grammatikasini o'rganish borasidagi xizmatlarini qanday baholashadi?
13. Mahmud Zamaxshariy turkologiya taraqqiyotiga qanday hissa qo'shdi?
14. Mahmud Zamaxshariyning asarlari tadqiqi bilan kimlar shug'ullangan?

### **7-Mavzu: Alisher Navoiy va qiyosiy tilshunoslik**

#### **R e j a:**

1. Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tilli.
2. Alisher Navoiy — chog'ishtirma (konstrativ) tilshunoslikning asoschisi.
3. «Muhokamatul-lugatayn» asarining yaratilishi tarixi.
4. Alisher Navoiyning lingvistik qarashlari.

**Tayanch so'z va iboralar:** *Chogishtirma, konstrativ, til va nutq, til va tafakkur, tillarning paydo bo'lishi.*

Buyuk mutaffakir shoir Alisher Navoiy uch til (fors, arab, turkiy til) o'zaro kurashayotgan bir paytda o'z asarlarini o'zbek tilini boy xazinasidan foydalangan holda yozdi. U «Xazoyinul-maoniy», «Xamsa», «Lisonut-tayr» kabi badiiy adabiyot namunalarini, «Majolisun-nafois», «Mezonul-avzon» kabi adabiyotshunoslikka oid asarlarini, «Muhokamatul-lugatayn» kabi tilshunoslikka doir asarlarini shu tilda yaratdi. Bu bilan o'zbek tilining badiiy, ilmiy asarlar yaratish uchun boy imkoniyatlarga ega ekanligini amalda ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotladi.

Alisher Navoiy lug'atchilik va grammatika sohasidagi yarim asarlik tajribasini «Muhokamatul-lugatayn» asarida umumlashtirdi. Bu asarda Navoiy eski o'zbek tili bilan fors-tojik tilini, bir-biriga chog'ishtirdi va noqardosh tillarni qiyosiy o'rganish metodini boshlab berdi.

Alisher Navoiy tillarni qiyoslab o'rganish bilan birga, asarda umumiy tilshunoslikka doir fikrlarni ham olg'a suradi. Asarda til va tafakkur, tillarning kelib chiqishi haqidagi fikrlarni olg'a suradi.

Tilshunoslarning til tarixini o'rganib, qiyoslashdagi asosiy quroli-chogishtirishdir.

Ilmiy adabiyotlarning barchasida chogishtirma tilshunoslik faniga XIX asr boshida kirib kelganligi ta'kidlanadi hamda bu fanning asoschilari sifatida F.Bopp, R.Rask, Kz.Grimm va A.X.Vostokovlar nomi ko'rsatiladi. Lekin bu o'rinda sharq tilshunosligi hisobga olinmagan, chunki chog'ishtirma usul fanga XIX asrda kirib kelgan bo'lsa ham, bu usuldan birinchi bo'lib qarindosh bo'lgan turkiy tillarning tavsifi boyicha XI asrda yashagan olim Mahmud Koshg'ariy foydalangan. Turkolog olimlardan biri N.A.Baskakov u haqda: «Turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy usul bilan o'rganishda Mahmud Koshg'ariy eng birinchi boshlovchi kashshof bo'ldi»-deydi. Chunki Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'otit turk» asarida bir xil oilaga kiruvchi turkiy tillarni shevalararo qiyosiy-tarixiy chogishtirish usulidan foydalanib, qiyoslaydi.

Yevropada esa qarindosh tillarning o'zaro aloqasi haqidagi birinchi asar 1538 yilda frantsuz gumanisti Gvilelmgma Postellusa tomonidan yaratildi. Bu asar «Tillarning qarindoshligi» nomlanib, asarda qarindosh tillarni tasniflashga harakat qilingan.



Alisher Navoiy esa dunyoda birinchi bo'lib «Muhokamatul-lugatayn» asari bilan 1499 yilda qarindosh bo'lmagan, ya'ni turli til oilasiga mansub tillarni muqoyasa qiladi. U turkiy tillar oilasiga kiruvchi turkiy-eski o'zbek tilini hind-yevropa tillar oilasiga kiruvchi fors tilini qiyoslaydi.

Yevropa dunyosida bunday asar Navoiy asaridan 100 yil o'tgach, 1599 yilda golland olimi losif Yustus Skaliger tomonidan yaratilgan. Asar «Ovrupaliklar tili haqida mulohazo. yuritish» deb nomlangan bo'lib, unda Yevropadagi barcha tillarni tasnif qilishga urinib ko'rilgan, olim ularni 11 asosiy guruhlar — til oilalariga bo'ladi, ya'ni 4 katta va 7 kichik guruhlariga ajratib tasniflaydi.

Navoiyning «Muhokamatul-lugatayn» asarida olga surgan va turkologiya tarixi uchun qimmatli bo'lgan fikrlari quyidagilar:

1. O'zbek tilini fors-tojik tili bilan chog'ishtirib, uning fors tilidan qolishmasligini ktfirsatib, o'zbek tilida asarlar yozishga yozuvchilarning da'vat qildi.

Alisher Navoiyning «Muhokamatul-lugatayn» asarining maydonga kelishi bilan dunyo tilshunosligida yangi sahifa ochildi. Tilshunoslikning bugungi kunda chog'ishtirma (konstrativ) lingvistika deb ataluvchi yangi bir yo'nalishga asos soldi. Chog'ishtirma tilshunoslikning o'ziga xos xususiyati shundaki, 2 tizimga mansub bo'lgan tillarning barcha sathlari bo'yicha bir-biriga solishtiriladi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

2. Asarda o'zbek tilining tarixiy fonetikasiga doir fikrlar ham mavjud. Navoiy tovushlarning artikulyatsion-funksional tomoniga katta e'tibor beradi va belgiga ko'ra tovush tipini-fonemani belgilaydi. Fonema va harf munosabatiga e'tiborni jalb qiladi. Ular bir-biriga doimo ham mos kelavermasligini, bir harf bir necha fonemani ifodalashi murnkinligini bayon qiladi. M: «yoy» hari 4 fonemani, «vov» harfi ham to'rt fonemani bildirishini aytadi. Navoiy bu haqda shunday yozadi: «Va ko'k lafzin ham necha ma'ni bilan iste'mol qilurlar. Bari ko'k — osmonni derlar, yana ko'k ohangdur, yana ko'k tegrada ko'klamdur, yana ko'k qadog`ini ham derlar, yana ko'k sabza va o'langni dog`i derlar».

3. Navoiy 2 tilni qiyoslaganda o'zbek tili lug'at boyligining ustunligini ko'rsatdi. Navoiy turkiy va fors tillardagi so'zlarni bir-biriga taqqoslar ekan, ayrim so'zlarning turkiycha atamasi bctlgani holda fors tilida shu tushunchani ifodalovchi stfz yo'q ekanligini ko'rsatadi. Masalan, eyiladigan taom turkiy tilda egulik deb ataladi, deydi Alisher Navoiy, lekin forslar yemakni ham, ichmakni ham xo'rdani so'zi bilan ifodalaydi. Alisher Navoiy davom etib yozadi: "Va uluq «qardosh va kichik qardoshni ikkalasin barodar derlar va turklar uluqni oga va kichikni ini derlar. Va bular ulug, kichik qiz qardoshni ham xohar derlar. Va bular ulugni egachi va kichikni singil derlar. Va .ular otaningoga-inisin opaga derlar. Va onaning oga-inisin-tagoyi derlar. Va alar hech qaysiga ot ta'yin qilmaydurlar va arab tili bila em va xol derlar. Va ko'kaldoshni turkcha til bila derlar. Va atka va enagani ham bu til bila ayturlar\*'. Turkiy tilning so'z boyligi fors tilining so'z boyligindan kam emasligini namoyish qilish niyatida Alisher Navoiy asarda 100 fe'lni keltirib, ularni tahlil qiladi va o'zbek tilini xazina deb biladi. Navoiy fors tilida 100 fe'lning leksik-semantik parallellari yo'q ekanligini aytib, inson kechinmalarining nozik qirralarini ifodalashda ular yozuvchiga qanday imkoniyatlar berishini aniq misol orqali yoritib beradi.

4. Ikki tilni qiyoslar ekan, Navoiy o'zbek tilining so'z yasaliish borasida ustunliklarini ko'rsatadi. «Muhokamatul-lugatayn»dan o'zbek tilida so'z yasaliishi tarixi haqida qimmatli fikrlar olish mumkin. Ayniqsa, ot yasovchi — chi, -vul qo'shimchalari, fe'l yasovchi —sh, -t, -I qo'shimchalari haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir.

5. Alisher Navoiy asarda o'zbek va fors-tojik tillarini chog'ishtirish jarayonida o'zbek tili tarixiy stilistikasiga xos xususiyatlarni ham bayon qiladi. O'zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, o'zining qaysi janr va uslubda asarlar yozganini alohida ta'kidlaydi.

Alisher Navoiyning bu asari o'zbek va fors-tojik tillarini, ulcrning lug'at tarkibini qiyoslashga bag`ishlangan birinchi filologik asar sifatida alohida ahamiyatga ega. Unda keltirilgan masalalarning ko'pi hali ham o'z ahamiyatini yo`qotgani yo'q.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Alisher Navoiy turkiy tilning shuhratini va mavqeini tiklash borasida qanday ishlarni amalga oshirdi?

- 2.«Muhokamatul-lug'atayn» asarining mavzu mundarijasida nimalar olgan?
- 3.Navoiyning til va tillarning paydo bo'lishi haqida qanday fikr bildiradi?
- 4.Bu masala yuzasidan fanda qanday fikrlar aytilgan?
- 5.«Muhokamatul-lug'atayn» asar qanday ilmiy ahamiyatga ega?

**8-mavzu:Alisher Navoiy asarlari bo'yicha yaratilgan filologik asarlar**  
**R e j a:**

1. Toli Imoniy Xiraviyning “Badoe al –lug‘at” asari.
2. “Abushqa” lug‘ati.
3. Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” asari.
4. Mirza Mehdixonning “Sangloh” asari.
5. Muhammad Rizo Xoksorning “Muntaxab al-lug‘at” asari.
6. Fazlullaxonning “Lug‘ati turkiy” asari.
7. Fath Alixon Kojariy va Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” asari.
8. Navoiy asarlari bo'yicha yaratilgan lug'atlarning ahamiyati.

**Tayanch so‘z va iboralar:**«*Badoe-al-lug‘at*», «*Abushqa*», *Mirza Mehdixon asari*, «*Muntaxab-al-lugat*»,*Fath Alixon Kojariy lugati*.

Eski o'zbek adabiy tili, xususan, Alisher Navoiy asarlari tili bo'yicha yaratilgan dastlabki lugatlardan biri «Badoe-al-lug'at» asaridir. Lug'at muallifi Toli Imoniy Hiraviyning hayoti to'grisida ma'lumot yo'q. Asarni Husayn Boyqaro farmoniga kffra yozgani esa uning Navoiy bilan bir davrda yashaganidan dalolat beradi.

Lug'atning kirish qismida muallif turkiycha lug'atlardan foydalangani haqida yozadi. Bu fakt o'sha davrda Hirotda boy turkiycha lugatshunoslik an'anasi mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

«Badoe-al-lug'at»da so'zlar alfavit tamoyili asosida joylashtirilgan va turkiycha so'zlarning ma'nolari fors tilida izohlangan. So'zlar izohida, leksik-semantik ta'rif (izoh, tushuntirish) bilan bir qatorda, fonetik, orfografik va morfologik ma'lumotlar ham keltirilgan. Fonetik-orfografik ma'lumotlar so'zning talaffuzi va yozilishi xususidagi qoidalardan tashkil topgan. Lug'at muallifi bir xil yoziladigan so'zlarni qanday diakritik belgi bilan ta'minlash kerakligiga alohida e'tibor bergan.

Lug'atda so'zlarning morfologiyasi arab filologik an'anasi asosida puxta ishlangan. Ot so'zlar bosh kelishikda, birlik sonda, fe'l so'zlar esa masdar shaklida (-moq va —mak shaklida) keltirilgan. Yordamchi so'zlar alohida berilgan.

Lug'atning illyustrativ materiali Alisher Navoiyning «Xamsa», «Chor devon» asarlaridan olingan.

Toli Imoniy Hiraviyning «Badoe-al-lug'at» asari boyicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Bu lugatning fotokopiyasi bilan ruscha tarjimasini alohida kitob holda A.K.Borovkov tomonidan nashr ettirildi.

«Abushqa» Alisher Navoiydan keyin uning boy adabiy va ilmiy merosini izohlash, uning asarlarida qo'llangan so'zlarni, so'z shakllarini fors va boshqa turkiy tillarga tarjima qilish kabi filologik ishlar bajarildi. Shu munosabat bilan keyinchalik olimlar tomonidan «chigatoy form» (chig'atoy tili termini «eski o'zbek tili» ma'nosida qo'llangan), «chig'atoy-titrk»,kabi lug'atlar tuzildi.

«Abushqa»ning bizga ma'lum bo'lgan nusxasi 1560 yilda yozilgan. Tadqiqotchilar bu lug'atdagi birinchi so'zni unga nom sifatida qo'lib, «Abushqa» («qariya», «chol») deb ataydilar.

«Abushqa» birinchi marta 1862 yilda qisqartirilgan holda vengr otimi German Vamberi tomonidan nashr qilinadi. To'la holda 1868 yilda V.V.Velngyaminov-Zernov tomonidan Peterburgda nashr qilinadi,

“Abushqa” lugatining nomi ham, muallifi ham noma'lum. Lug'at ichidagi birinchi so'z bilan «Abushqa» deb atab kelinadi. Bu lug'at «Badoe-al-lugat» asariga ko'p jihatdan yaqin. «Badoe-al-lug'at» XV asrda yaratilgan bo'lsa, "Abushqa" XVI asrning birinchi yarmida yaratilgan. Har ikkala lugatda misollar Alisher Navoiy asarlaridan olingan.

A.K.Borovkovning ta'kidlashicha, "Abushqa"ning muallifi "Badoe-al-lugat"ni yaxshi bilgan. Bu lug'atlar orasidagi yaqinlik ularda kafp so'zlarning bir xil izohlanishi va ularda keltirilgan

illyustrativ materialning bir-biriga (fxshash ekanligida kdrinadi. Lekin bu o'xshashliklar "Abushqa" "Badoe-al-lugaf'ning kafchirmasi ekan degan ma'noni anglatmaydi. Bu lug'atlar orasida bir qancha farqlar mavjud. Masalan, Toli Imoniy Hiraviyning lug'atida forslar uchun tushunarsiz bo'lgan eski o'zbekcha so'zlarning ma'nolari fors tilida izohlangan, "Abushqa"da esa turklar (usmonli turklar) uchun tushunarsiz bo'lgan eski o'zbekcha so'zlarning ma'nolari turk tilida izohlangan. Shuning uchun bu lug'atlarning mundarijasi katta farq qiladi.

**Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma" asari.** «Kelurnoma» asari Hindistonda, boburiylardan Abu Muzaffar Muhiddin Aurangzeb hukmronligi davrida (XVII) yaratiladi, Lug'atning kirish qismida muallif o'z asarini Aurangzebning topshirig'iga binoan yozganini aytib o'tadi. Lug'atda eski o'zbek tiliga tegishli so'zlarning ma'nolari fors tilida izohlangan.

Lug'at mundarijasi o'n besh bobdan iborat. Uning o'n to'rt bobida fe'llar izohlanadi (lug'atda keltirilgan fe'llarning soni 400 dan oshadi). Fe'llar lug'atda masdar shaklida (-moq, rnog' shaklida) berilgan. Fe'llarning ma'no xususiyatUai bilan bir qatorda ularning grammatik kategoriyalari, zamon shaktari ham izohlanadi.

Lug'atning oxirgi bobi ot so'zlarga bag'ishlanadi. Bu bob quyuiagi mavzuviy guruhlariga ajratiladi.

- 1) koinotga tegishli tushunchalar, predmet va hodisalar nomlari:
- 2) jug`rofiy joylarning nomlari:
- 3) hayvonlarning nomlari:
- 4) qushlarning nomlari:
- 5) odam gavdasi a'zolarining nomlari:
- 6) qarindoshlik nomlari:
- 7) qurol-aslahalarning nomlari:
- 8) sonlar:
- 9) olmosh, ravish va yordamchi so'zlar.

**Fayzullaxonning «Lugati turki» asari.** «Lugati turki» lug'at o'zbekcha-forscha lug'atlar qatoriga kiradi. Turkolog A.M.Shcherbakning taxminicha, lug'at XVII asarning oxirida yaratilgan.

Asar uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismida eski o'zbek tilidagi hodisalar fe'lning masdar shaklida fors tilida izohlangan, ikkinchi qismida fe'lning boshqa shakllari (mayl, zamon kabi shakllari) tavsiflangan. Asarning uchinchi qismi otlar talqiniga bag'ishlangan.

Lug'atda so'zlarning talaffuziga aid ma'lumotlar ham mavjud. Ozbek adabiy tili fonetik sistemasi taraqqiyotini o'rganishda bu ma'lumotlardan foydalanish mumkin.

**«Sangloh». Mirza Mehdixon «Sangloh» nomi bilan mashhur bo'lgan lugatini XVIII asrning o'rtalarida (1760 yilda) yaratdi.** Bu asar haqida fors mumtoz adabiyotining bilimdoni doktor Zabihullo shunday deb yozadi; «Sanloh» lug'ati mashhur kitob... «Burhoni qot'e» («Qat'iy dalitlar») fors tilidan xabardor bo'lish uchun qancha qiymatga ega bo'lsa, bu kitob turkiy tildan xabardor bo'lish uchun shunchalik qiymatga ega».

Mirza Mehdixon o'z asari haqida shunday deb yozadi; «Bandai haqir Muhammad Mahdi yoshligidanoq balog'at va fasohat o'lkasining suxondonlik buyruyochisi Amir Alisher Navoiy she'rlarini o'qishga va o'ning so'zlarini ffrganishga cheksiz zavqim bor edi. Biroz oning ma'nolariga tushungandan keyin menda shunday niyat paydo bo'ldiki, uning mushkul so'zlarini jamlab va ular ma'nolarini izohlab, yozishga kirishsam. Kitobni yozishdan maqsad talabalarni qiyinchilikka uchramasdan ko'zlangan manziliga oson etib borishlarini ta'minlashdir».

Eski o'zbek tilidagi 8000 so'zni o'z ichiga olgan mazkur asar uch qismdan iborat. «Maboni ul-lug'at» (Til asoslari) asarning birinchi bo'limi bo'lib, unda eski o'zbek tilining grammatik qonun-qoidalari mufassal yoritilgan. Uni «Eski o'zbek tilining birinchi grammatikasi» deb ataydilar. Q.Muhiddinov «Maboni ul-lugat»ni o'zbek tiliga tarjima qilib, o'z ilmiy ishiga ilova qilgan. Ikkinchi bo'limda turkiy o'zak so'z va so'z birikmalarining forsiy izohi berilgan. Bu bo'limni 1995 yili Ravshan Xayoviy Tehran universiteti kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi asosida Tehronda chop ettirdi. Asarning uchinchi btflimida Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan arabiy va forsiy so'z birikmalarining izohi keltiriladi. Mehdixon so'z ma'nolarini izohlab, ularning ko'chma ma'nolarini alohida qayd etib o'tadi.

Ocherkda dastlab turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Fe'lning asosi, deb yozadi muallif, arab tilida masdar (infinitiv) bo'lsa, turkiy tillarda ikkinchi shaxs buyruq

maylining birlik soniga to'g'ri keladi. Turkiy tillarda fe'ning boshqa shakllari mana shu asosga turli qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi.

Grammatik ocherk olti mabno (bo'lim) dan iborat. Har qaysi mabno eski o'zbek tili grammatik strukturasi biror tomonini yoritadi.

Birinchi mabno o'n bobga ajratilgan. Undo dastlab fe'ning masdar. Sifatdosh, daraja va mayl shakllari haqida fikr yuritiladi. Mirza Mehdixon fe'ning o'zlik (qaytim) va birgalik darajalarini buyruq maylini alohida-alohida tahlil qiladi.

Ikkinchi bobda fe'ning o'tgan zamon shakllariga bag'ishlanadi. Ishda fe'ning o'tgan zamon shakli fe'li moziy deb ataladi. Fe'li moziyga (o'tgan zamon fe'liga) mitallif aniq o'tgan zamon fe'lini (-di,-ti qo'shimchalari bilan yasalgan fe'l shakllarini), o'tgan zamon ravishdoshining —(i)b, -(i)p, -(i)bon, -(i)pon shakllarini, o'tgan zamon sifatdoshining —mish, -g'an, -gan, -qan, -kan kabi shakllarini kiritadi.

Uchinchi bobda fe'ning hozirgi-kelasi zamon shakli bayon qilinadi. Fe'ning mazkur shakli asarda fe'li muzori deb ataladi. Fe'li muzoriga —gay, -gay, -kay, -qay, -a-di kabi qo'shimchalar vositasida yasalgan j'e 'liar kiritiladi.

To'rtinchi bobda ish-harakatni bajaruvchi nomini yasaydigan shakllar izohlanadi. Ismi fo'il deb nomlangan bu kategoriyaga muallif—guchi, -g'uchi, -kuchi, -quchi kabi qo'shimchalar yordamida yasaladigan shakllarni kiritadi. Ushbu bobda fe'ldan yasalgan boshqa shakllar ham tavsiflanadi. Masalan, -kun, -qun<sub>f</sub> -gun, -gun qo'shimchalari bilan yasalgan shakllar ham ismi fo'liga kiritiladi.

Beshinchi bobda o'tgan zamon sifatdoshi haqida mulohazalar yuritiladi. Asarda bu shakl ismi maf'ul deb yuritilgan. Ismi maf'ulga —mish, -gan(-g'an), -lig,-liq, -luk, -luq, -lug' qo'shimchalari vositasida yasalgan shakllar qiritiladi.

Oltinchi bobda fe'ning buyruq mayli bayon qilinadi. Mullif fe'ning bu shaklini fe'li amr deb ataydi. Fe'li amrni yasaydigan qo'shimchalarni har biriga alohida-alohida to'xtalib o'tadi. Yettinchi bob buyruq fe'lining bo'lishsizlik shakliga bag'ishlanadi. Sakkizinchi bobda fe'ning bo'lishsizlik shaklini yasovchi qo'shimchalar sharhlanadi.

To'qqizinchi bobda ravish va ravishdosh, o'ninchi bobda qo'shimchalarning fe'l o'zagiga qo'shilish yo'llari, bu jarayonda qo'shimchalarda yuz beradigan o'zgarishlar ko'rsatiladi.

Grammatik ocherkning ikkinchi mabnosida fonetik hodisalar tahlil etiladi. Mazkur mabnoda fe'l qo'shimchalarining fonetik variantlari va ularning yozilish qoidalari ham bayon qilinadi.

Uchinchi mabnoda olmoshlar tavsifi beriladi. Mullif olmoshlarni otlarning (ismlarning) bir tun sifatida izohlaydi. Masalan, ko'rsatish olmoshlarini u asmoi ishora (ko'rsatish ismlari) deb ataydi. Olmoshlarning otlar tarkibiga kiritilishi arab grammatik an'anasiga ergashishning natijasidir. O'rta asrlar arab tilshunosligida so'zlar uch turkumga {otlar, fe'llar va yordamchilarga) ajratilgan. Bu tasnifga ko'ra fe'l va fe'llik xususiyatiga ega bo'lmagan mustaqil so'zlarning deyarli hammasi otlar turkumiga kiritilgan.

To'rtinchi mabno qo'shimchalar xarakteristikasiga bag'ishlangan. Qo'shimchalar bu asarda harflar deb nomlangan.

Beshinchi mabnoda grammatik ma'no ifodalaydigan so'zlar tavsiflanadi. Bu xil so'zlar orasida tushmoq, olmoq, bilmoq, yozmoq kabi fe'llar tahlili ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Mirza Mehdixon bunday so'zlarni modal va qo'shimcha (grammatik) ma'no bildiruvchi fe'llar sifatida izohlaydi.

Oltinchi mabnoda asl turkiy va o'zlashtirma so'zlarning yozilish qoidalari bayon qilinadi.

Mirza Mehdixon asarining lug'at qismi «Sangloh» deb nomlangan. Forscha sang «tosh» degan ma'noni ifodalaydi. Sangloh (toshli er) majoziy ifoda bo'lib, forslar uchun tushunilishi qiyin bo'lgan turkiy so'zlar toshloq, toshli erga o'xshatilgan.

Lug'at 24 bobdan iborat. Bu boblarda so'zlar soni bir xil emas. Ba'zi boblarda 4-5 ta so'z berilgan bo'lsa, ba'zi boblarda mingdan ortiq so'z berilgan. Lug'atda, so'zlar bilan bir qatorda, ko'plab turg'un birikmalar, frazeologik ibora va takibli atamalar ham izohlangan.

Mirza Mehdixoitning mazkur asari o'zbek tili grammatikasi va leksikasi bo'yicha noyob manba sifatida bir qancha ilmiy tadqiqotning obyekti boldi.

**Muhammad Xoksoning «Muntaxab-al-lug'at» asari.** Muhammad Rizo Xokson «Muntaxab~al-lug'at» («Saylanma lug'at») asarini 1798-99 yillarda yaratdi. Asar izohli lugatlar seriyasiga kiradi.

Asarning kirish qismida muallif o'sha davrda mavjud bo'lgan lugatlar to'g'risida ma'lumot berar ekan, bu asarlarda yo'l qoyilgan kamchiliklarni ayrim so'zlarning ularda noto'g'ri izohlanganini ko'rsatib o'tadi.

Lug'at ikki qismdan iborat. Birinchi qismda eski o'zbek adabiy tilida ishlatilgan arabcha so'zlar, ikkinchi qismida esa forscha-tojikcha va eskirgan o'zbekcha so'zlar izohlanadi. «Muntaxab-ul-lug'at»da hammasi bo'lib 2400 so'z berilgan,

Xokson lug'atining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, unda so'zlarning to'g'ri (asosiy) ma'nosi bilan bir qatorda, ko'chma (hosila) ma'nolariga ham izoh beriladi.

Lug'atda so'zlar arab alifbosi tartibida so'zning birinchi tovushiga (harjiga) qarab 28 bobga taqsimlanadi. Har qaysi bobda so'zlar oxirgi tovushga (harfga) qarab guruhlanadi. Masalan, alif bilan tugaydigan so'zlar, be bilan tugaydigan so'zlar, te bilan tugaydigan so'zlar kabi.

**Fath Alixon Kojariy lug'ati.** Bu lug'at XIX asrning o'rtalarida (1857-1858 yillarda) yaratilgan bo'lib, mutaxassislar tomonidan yuksak baholangan. Rus turkologi A.A.Romaskevich bu lugat bo'yicha maxsus tadqiqot olib bordi.

Asarning kirish qismida chig'atoy (eski o'zbek) tili va Alisher Navoiy asarlari to'g'risida ma'lumot berilgan. Asarning lug'at qismi uch bo'limdan iborat: 1) o'zbekcha-forslari lug'at; 2) «Maboni-ul-lug'at» asarining muallifi Mirza Mehdixon tushunmagan so'zlar izohi; 3) Alisher Navoiy asarlarida ishlatilgan ba'zi forscha so'zlar izohi.

Fath Alixon Kojariyning lug'ati so'z ma'nolari izohlarining puxtaligi, Alisher Navoiy va boshqa shoirlarning asarlaridan keltirilgan misollarning ko'pligi bilan ajralib turadi. Lug'atda hammasi bo'lib 8000 ga yaqin so'z izohlangan.

**Sulaymon Buxoriyning «Lugati chigatoyi va Turkiy Usmoniy» asari.** Sulaymon Buxoriy — XIX asrda yashagan mashhur o'zbek olimlaridan biri. U Buxorodagi madrasada o'qiydi, Turkiyada hayot kechiradi. 1860 yilda Vengriyada bo'lib o'tgan turkoiloglar anjumanida ishtirok etadi. Vning lug'at tuzishiga mana shit anjumanda qatnashuvi sabab bo'ladi.

**Sulaymon Buxoriyning lug'ati** turkolog I.Kunosh tomonidan nemis tiliga tarjima qilinadi va 1902 yilda Budapeshtda nashr etildi. Asar uch qismdan iborat bo'lib, muqaddima qismi "Manzumai chigatoy" deb nomlangan. Bu qismda muallif asarning yozilish sababi, o'zining tarjimai noli va lug'atning tuzilishiga aid ma'lumotlar beriladi.

"Qavoid ("Qoidalar") deb nomlangan asarning ikkinchi qismida eski o'zbek tilining grammatik masalalari yoritiladi. Undo muallif, til qurilishiga old tushunchalar bilan bir qalorda, chigatoy tilining o'ziga xos xususiyatlarini, lining boshqa turkiy tillarga o'xshash va ulardan farqli tomonlarini ham aytib aHadi. Turkiy tillarni bunday qiyoslash asarning yutuqlaridan hisoblanadi.

Sulaymon Buxoriy asarining uchinchi qismini lug'at tashkil etadi. Unda eski o'zbek tilida ishlatilgan 7000 ga yaqin so'z va turg~un birikma usmoni turk tili vositasida izohlanadi, So'z ma'nolarining izohlari Navoiy va boshqa adiblarning asarlaridan olingan misollar bilan asoslab beriladi.

Sulaymon Buxoriyning ushbu asari eski o'zbek tilini o'rganishda jiddiy va ishonchli manbalardan biri sifatida katta ahamiyatga ega.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Alisher Navoiy asarlari bo'yicha qanday lugatlar tuzilgan?
2. «Badoe—al-lugat» va «Abushqa» tugatlar orasida qanday o'xshash va farqlar mavjud?
3. «Kelurnoma» asari qachon yaratilgan?
4. «Lugati turkiy» asarida qanday masalalar yoritilgan?
5. Mirza Mehdixonning «Sangloh» asarida turkiy tillarning qaysi xususiyatlari ochib berilgan?
6. Sulaymon Buxoriy tomonidan yaratilgan lugat necha qismdan iborat va unimalarga e'tibor beradi?

## 9-mavzu: Abdurauf Fitrat va uning turkiy filologiya taraqqiyotiga qo'shgan hissasi

### R e j a:

1. Fitratning turkologiya qo'shgan xissasi.
2. "Tilimiz" maqolasi.
3. "Carf" va "Nahv" asari.

**Tayanch so'z va iboralar:***Sarf, nahv, yo'g'on, ingicha, singarmonizm, bosim, kichiklangan otlar, nisbat sifati, o'rtoqlik sifati, oshirma son, sira son, ulush son, kelajak fe'llari, ko'rilgan fe'l, eshitilgan fe'l, to'ldirg'ichlar, borish, tushum, to'ldirg'ichlar, tilak gaplar, undashli gaplar, qayg'urishli gaplar, eksik gap, tugal gap, kinoya gaplar, teskari shartli gaplar, kirish so'z.*

Fitrat XX asr o'zbek madaniyati tarixidagi yorqin siymolardan biridir. Fitrat - uning adabiy taxallusi. Fitrat so'zining lug'aviy ma'nosi Navoiy asarlari lug'atida «tabiat, tug'ma tabiat, yaratilish» ma'nolari izohlangan.

Fitrat tilshunos sifatida tilning barcha bo'limlari haqida o'z munosabatlarini bayon etadi. U o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga, o'zbek tilining turkiy tillar tizimidagi o'rnini belgilab berishga harakat qiladi.

Adabiy tilning boyishida asosiy manba bo'lib xizmat qiladigan xalq shevalariga diqqatni ko'proq jalb qilish kerakligini alohida uqtiradi. Adabiy tilning shakllantirishda shahar shevalariga emas, balki qishloq shevalariga tayanish kerak ekanligini ta'kidlaydilar. Bu haqda Fitrat «Sarf» kitobida shunday yozadi: "Bilamizki, bizning shaharlarimiz yuzlab yillardan beri arab, forsiy adabiyotning hukmi ostida yashaydi, shuning uchun bizda shahar tili buzul'ondur. Tilimizning sof shaklini daladagi el-aymoqlarimizda ko'ra olamiz". Bu bilan singarmonizmli shevalar o'zbek adabiy tilining tayanch shevalari bo'lishi kerak degan fikrni ilgari suradi. Fitratning o'zbek tilining turli masalalariga bag'ishlangan asari "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba" deb nomlanadi. Bu asar o'zbek tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisini izchil ravishda berilgan birinchi grammatikadir.

Fitratning fonetik qarashlari o'zbek imlosiga bag'ishlangan bir qator maqolalarida va «O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Sarf» asarida o'z aksini topgan. Unlilarni ikkiga bo'ladi. Sof undan iborat bo'lgan fonemalar unlilar, ovozga ega bo'lmagan fonemalarni unsizlarga bo'ladi. O'zbek adabiy tilida 23 ta unsiz fonema mavjudligini ko'rsatib, ulardan x, h, f fonemalari asl turkcha so'zlarda kam uchrashini ta'kidlaydi. Fitrat o'zbek tilida mavjud bo'lgan singarmonizm qonuniyatini aks ettirishini, bu holat esa shahar shevalarida fors tilining ta'sirida bo'lganini, shuning uchun ham umumturkiy fonetik xususiyatni ko'proq saqlab qolgan qishloq shevalariga tayanish kerakligini alohida uqtiradi. Ana shu asosda unlilarni ikkiga yo'g'onlik va ingichkalik belgisi bilan belgilaydi.

yo'g'on (orqa qator)	ingichka (oldi qator)
a, o', u, i	e, o, y, i

Yo'g'onlik-ingichkalik belgisiga ko'ra farqlanishga ega bo'lmagan "e" unlisi ham mavjud ekanligi, jami 9 ta unli fonema borligini ko'rsatadi.

Fitrat "Sarf" asarida so'z turkumlari haqida ma'lumot beradi. So'z turkumlarini 4 ga bo'ladi. Ot, sifat, fe'l, ko'makchi. Asarda olmosh, son haqida ham so'z yuritadi, biroq ularni alohida so'z turkumi sifatida ajratmaydi.

Otlarni tub va yasama otlarga bo'ladi. Yasama otlarni o'run oti, qurol oti, ish oti, kichiklangan ot, qo'shma otlar kabi mayda bo'laklarga bo'lib, ularga alohida-alohida izoh beradi. Masalan, ish oti atamasi hozirgi tilshunoslikdagi funktsional fe'l shakllaridan harakat nomiga to'g'ri keladi. Ular quyidagi qo'shimchalar orqali yasalanishini ko'rsatadi: -moq, -ish, (bilish), -im, -uv, -nch (ishonch) kabi.

Sifatni ham ikkiga bo'ladi. Tub va yasama sifatlarga. -li, -siz, -gi, -ki, -g'i, -imtil, -ma, -lik.

Yasama sifatlarni ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) nisbat sifati – g'iy, -viy.
- 2) o'rtoqlik sifati -doshG`dash
- 3) jins sifati kumush qoshiq, oltin uzuk.

4) o'xshatish sifati kabi, o'xshash, -dekG`day, yanglig', singari  
Sonlarni alohida so'z turkumi sifatida bermaydi. Sifat tarkibida aytib o'tadi.

Yasama sonlar ma'nosi va yasovchi qo'shimchalariga ko'ra: sira son: -i(nchi), ulush son (-ar), (-tadan), chama son -(lab), sanalmishsiz son (-ov), o'rtoqlik son (-ala), oshirma son (-larcha), o'lchov sonlari (numerativ) qadaq, yutum kabi.

Fitratning fikricha, "ot shrnida almashtirilib" qo'llaniladigan so'zlarga "ot olmoshlari" yoki "olmosh" deyiladi. Olmoshlar uch turga bo'linadi:

1) ot olmoshlari - u, men, sen, ular, biz-bizlar, siz-sizlar.

2) ko'rsatish olmoshlari – bu-bul, shu-shul, bular-bunlar, shular.

3) so'rash olmoshi – kim, nima, qanday, nega, nuchuk, nechun kabi.

Fe'l so'z turkumi ancha mukammal yozilgan. Fitrat fe'lning shaxs, son, bo'lishli-bo'lishsiz va zamon kategoriyalariga ega ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Fitrat ko'makchi so'zlar haqida ham alohida to'xtaladi. Hozirgi tilshunoslikda yuklama, bog'lovchi, ko'makchilar hamda modal, undov so'zlar tarkibida o'rganilayotgan lisoniy birliklarning hammasi ko'makchi so'zlar atamasi ostida beriladi.

Fitratning sintaktik qarashlari uning «O'zbek tili qoidalariga to'g'risida bir tajriba. Nahv» asarida o'z aksini topgan.

Bu asar haqida muallif: "O'zbek nahvi to'g'risida mening bir tajribamdir" – deb yozadi. Hali o'zbek tili sintaksisining mundarjasi belgilanmagan, sintaktik tushunchalarni ifodalovchi atamalar tizimi izga solinmagan bir davrda mazkur asarning vujudga kelishi o'zbek tilshunosligi tarixi uchun katta voqea edi. "Nahv" "butundan qismga" tamoyiliga amal qiladi. Shuning uchun ham sintaksisning asosiy o'rganish birligi bo'lgan gap haqida ma'lumot berishdan boshlanadi.<sup>1</sup>

Gap haqida ma'lumot bergandan keyin, tinish belgilari to'g'risida ham so'z yuritadi. Muallif punktuatsion belgilarni «turush belgilar» atamasi bilan nomlaydi. Fitrat 12 ta tinish belgisi va ularning vazifalari haqida ma'lumot beradi.

Gap bo'laklari haqida gap ketganda, Fitrat ega va kesimni bosh so'zlar tarkibiga kiritadi. Bosh so'zlardan boshqa barcha bo'laklarni "to'ldirg'ichlar" atamasi bilan nomlaydi.

To'ldirg'ichlar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) tushum, 2) borish, 3) chiqish, 4) o'run, 5) birgalik, 6) chog', 7) nechunlilik, 8) nechuklik to'ldiruvchilari. Asarda to'ldirg'ichlarning har bir haqida alohida-alohida to'xtalib o'tadi.

Fitrat kirish so'z, kirish gap va kiritmalar haqida ham ma'lumot beradi. Bu uch lingvistik hodisa bir termin – kirish so'z atamasi ostida o'rganiladi. U bu atamaning arablarning "mo'tariza", ruslarning "vvodnoe slovo" atamalariga teng kelishini ta'kidlaydi.

Kirish so'zlarning gapning boshqa qismlaridan yozuvda vergul bilan ajratilishi, kirish so'zlar gapdan tushirib qoldirilganda ham gapning ma'nosiga zarar yetmasligi haqida so'z yuritiladi.

Fitrat ko'rsatib o'tgan sintaksis haqidagi fikrlar bugungi kunda ham mavjudligini darsliklarda ko'rishimiz mumkin. O'zbek tili morfologiyasi va sintaksisining fan sifatida shakllanishida Fitratning xizmatlari katta. U birinchilardan bo'lib o'zbek tili morfologiyasi va sintaksisi haqida izchil ravishda ma'lumot berdi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Fitratning "SarF" asari nimaga bag'ishlanadi?
2. Fitrat o'zbek tili fonemalarini necha guruhga bo'ladi?
3. Fitrat o'zbek tili unlilar tizimi masalasida qanday fikrda edi?
4. Tovush o'zgarishlari haqida nimalarni aytadi?
5. Fitrat so'zlarni semantik tamoyil asosida necha guruhga ajratadi?
6. Qo'shma fe'llarni necha turga bo'ladi?
7. Ikkinchi darajali bo'laklarni qanday nom bilan ataydi va ularni necha guruhga ajratadi?
8. Gapning maqsad va ma'nosiga ko'ra necha guruhga ajratadi?

### **10-mavzu: Turkiy tillarning xorijiy mamlakatlarda o'rganilishi**

#### **Reja:**

1. Xorijda turkiy tillarni o'rganilish tarixii.
2. Rossiyada turkiy filologiya masalalarini o'rganilishining boshlanilishi.

<sup>1</sup>Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. -T.: O'zbekiston, 2002, 155-bet.

3. Moskva maktabining turkologiya taraqqiyotidagi o'ri.
4. Qozon maktabi vakillarining ilmiy faoliyati.
